

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Qo'lyozma huquqida

Temirova Shahnoza Valiyevna

**Mavzu: "Maktab tarix ta'limida xorij ta'limi tajribasidan foydalanish.
(Xitoy, Yaponiya, Koreya, Singapur, Malayziya misolida)" Tajriba va
muammolar.**

Tarix fakulteti _____

tarix bo'yicha magistr darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi, dotsent, Tolibov R. N.

Navoiy - 2016 yil

**Temirova Shahnoza Valiyevnaning magistrlik dissertatsiyasi mavzusi
“Maktab tarix ta`limida xorij ta`limi tajribasidan foydalanish.
(Xitoy, Yaponiya, Koreya, Singapur, Malayziya misolida)” Tajriba va
muammolar.**

Kirish

**I. Bob. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishda
xalqaro tajribalardan foydalanish.**

1.1. Mustaqil O'zbekistonnig Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ta'lim sohasidagi aloqalari, natijalari va istiqboli.

1.2. Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarning O'zbekistondagi Oliy o`quv yurtlari va ular bilan hamkorlik munosabatlari.

**II. Bob. Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida
ta'lim tizimining tuzilishi va o`ziga xos xususiyatlari.**

2.1. Xitoy, Yaponiya davlatlari ta'lim tizimining o`ziga xos xususiyatlari.

2.2. Koreya, Singapur, Malayziya davlatlarida ta'lim tizimi, o`qitilish uslublari, farqi va muammolari.

**III. Bob. Maktabda ta'limni tashkil etishda xorij ta'limi tajribasidan
foydalanish.**

3.1. Ta'limni tashkil etishda investitsion aloqalar.

3.2. Tarix ta'limini o`qitishda xorij ta'limi tajribasidan foydalanish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

O'tgan asrning 90-yillari boshlarida yangi yosh davlatimiz oldida mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olish, bu yo'lda yoshlarimizni ulug' ajdodlarimiz ilmiy– ma'naviy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash vazifasi turgan edi. Bu vazifani esa mutloqo kechiktirib bo'lmadi. Hali o'sha suronli yillarda Prezidentimiz I.A.Karimov “Bizga kadrlar tayyorlashning maxsus milliy dasturi kerak”¹– deb ta'kidlaganlarida naqadar haq edilar. Bu haqda so'z yuritganda, yurtboshimiz tomonidan 1990 yil 4 avgustda, hali sobiq mustabid mafkura hukmron bo'lib turgan bir paytda kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish masalasini kun tartibiga qo'ygan edi². Lekin faqat mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu g'oyani amalga oshirish imkoni tug'ildi. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Keyinchalik, 2004 yilda ana shu dasturning uzviy davomi bo'lgan maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilindi va izchil joriy etildi. Shular qatorida mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish, musiqa va san'at maktablarining, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar qabul qilinganini ta'kidlash lozim. Hozirda bu yo'lda amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda «Davlat ta'lim standartlari» talablariga muvofiq barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy harakat muvaffaqiyatini taminlashga xizmat qilmoqda.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Prezidentimizning “Farzandlarimizni mustaqil va keng fikirlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi kerak”, “buzish yo'lidan emas, tuzish, barpo etish, borini asrab–avaylash, yo'g'ini yaratish yo'lidan borishimiz zarur”, degan ko'rsatmalari, milliy taraqqiyotning “o'zbek modeli” deb e'tirof etilgan tamoyillari bu borada muhim dasturilamal bo'ldi. Ayni

¹ Islom Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T. “O'zbekiston”, 2011. 16-bet

² Shu yerda: 16-17-betlar.

paytda istiqlohimizni ichki va tashqi xurujlardan asrab – avaylash, yangi jamiyatning yangi, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikirlashga qodir, millat tarixini yaxshi biladigan yoshlarni tarbiyalash biz uchun kechiktirib bo'lmaydigan vazifa bo'lib turar edi. Zero, matonatli yoshlarni kamol toptirish, istiqloq mafkurasini yoshlar ongiga va qalbiga singdirish va buni ta'lim – tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshirilishi zaruriyat bo'lib qoldi. Yosh mutaxassis ma'naviyatiga katta e'tibor qaratildi. Yurtboshimiz tabkidlaganlaridek, “Insoniyat tarixiy ma'naviyat–insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch–qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini tasdiqlaydi¹.

O'tmishdan o'zbek xalqida tarbiyaning inson hayotidagi o'rni ulug'lanib kelingan. Ta'lim-tarbiyaga alohida ahamiyat berish-bu kelajak haqida qayg'urish demakdir. “Ma'naviyatga ta'sir etadigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim–tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir”². Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. «Kuch – bilim va tafakkurda»³ deb takidlaydilar, Prezidentimiz I. A. Karimov.

1997 yilda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida jamiyatimizda ta'limni tubdan isloh qilish tadbirlarini amalga oshirish boshlandi. Birinchi bosqichda (1997-2001yillar) pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish, yangi o'quv davlat standartlarini yaratish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi moddiy texnika bazasini vujudga keltirish birlamchi vazifa bo'lgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda (2001-2005yillar) majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va o'zlashtirish imkoniyatiga qarab tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish amalga oshirildi. Keyingi bosqich esa kadrlar tayyorlash tizimini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbol-

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. «Ma'naviyat», 2008., 29-bet

² Shu yerda: 60 – bet.

³ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni - xalq, millatni, millat qilishga xizmat etsin. T. “O'zbekiston”. 1998. 24 – bet.

lariga, Prezident Islom Karimovning nutq va ma`ruzalarida qo`yilgan yangi vazifalarga mos ravishda takomillashtirish davom etmoqda.

Bugunda faxr bilan aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda milliy mafkuraga asoslangan tamomila yangi ta`lim tizimi yuzaga keldi va u dunyoda rasman e`tirof etilmoqda. Ayni shu dastur asosida yurtimizda 9+3 sxemasi asosidagi 12 yillik majburiy bepul ta`lim tizimi shakllandi. Oliy ta`lim tizimi bakalavriat va magistratura bosqichidan iborat ikki pog`onali tizimga o`tkazildi.

Bosib o`tilgan qisqa yillar mobaynida O`zbekistonda ta`lim tizimi islohoti jumladan, umumta`lim, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar rivojlanishida ham o`zining ijobiy o`zgarishlarini namoyon etmoqda. Jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko`lamda o`rganish, yangiliklar va yutuqlarni ta`lim tizimiga joriy etish, bularning hammasi bu tizim faoliyatini yanada rivojlantirishga ko`maklashmoqda. Ayniqsa, yurtimizda juda ko`plab ta`lim maskanlari bunyod etildi. O`tgan davrda mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob beradigan 1554 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji barpo etildi, mavjud 9765 ta maktabning barchasida keng ko`lamli qurilish, rekonstruksiya, kapital ta`mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, 300 ga yaqin musiqa va san`at maktabi, 1300 dan ziyod bolalar sporti obyekti qurilib foydalanishga topshirildi. Hozirgi vaqtda O`zbekistonda har yili davlat byudjeti xarajatlarining 35 foizdan ortig`i ta`lim sohasiga yo`naltirilmoqda va bu yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etmoqda. Bunday ko`rsatkichlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida kamdan-kam uchratish mumkin.

Mamlakatimizda Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Maktab ta`limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» tufayli bugun mamlakatimiz o`quv maskanlarida shart-sharoit tubdan yaxshilandi. Jumladan: birgina Navoiy viloyatida 355 ta umumta`lim maktabi, 4 akademik litsey va 51 ta o`rta maxsus, kasb-hunar kollejlari mavjud bo`lib, unda 130 ta`lim yo`nalishlari kesimida 58600 nafar

o'quvchi yoshlar kasb-hunar sirlarini o'rganishmoqda.¹Ularga 4813 nafar pedagog, muhandis pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari kasb-hunar sirlarini o'rgatib kelishmoqda. Ayni paytda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 2004-2009 yillarda viloyat bo'yicha jami 341 ta maktabda qurilish-tamirlash ishlari amalga oshirildi.Jumladan, 10 ta yangi maktab binosi qurildi, 97 ta maktab binosi kapital rekonstruksiya qilindi. 140 ta maktabda kapital va tamirlash ishlari bajarilib, ular uchun jami 47,9 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.Shuningdek, 248ta ta'lim muassasasiga fizika,186 tasiga ximiya laboratoriyasi jihozlari,226 tasiga kompyuter jamlanmalari yetkazib berildi².

Ta'lim- tarbiyaga alohida ahamiyat berish-bu kelajak haqida qayg'urish demakdir.Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir.«Kuch-bilim va tafakkurda»³ deb takidlaydilar, Prezidentimiz. I.A. Karimov.

O'zbekistonda ta'lim tizimi islohoti umumta'lim maktablari, litsey va kollejlari rivojlanishida o'zining ijobiy o'zgarishlarini namoyon etmoqda. Jahon mamlakat-lari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish, yangiliklar va yutuqlarni ta'lim tizimiga joriy etish,bularning hammasi bu tizim faoliyatini yanada rivojlantirishga ko'maklashmoqda.Ta'lim sifatining oshirilishi,tarbiya berishning o'ziga xos usullaridan keng foydalanilayotgani,yoshlarimizning iqtidor va salohiyati yuzaga chiqarilayotgani sohadagi izchil islohotlar mevasidir.

Ayni paytda bilim dargohlarining o'quv jarayoni va tarbiyaviy tizimida sifat o'zgarishini,o'qitishning zamonaviy ilg'or chet davlatlar tajribasidan, uslub va metodlaridan qanday foydalanayotgani masalalari tarixini o'rganish, ilmiy tadqiqot qilish, yutuq va kamchiliklari haqida tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.Darhaqiqat, bugunda chet el davlatlari ta'limi o'qitish tajribasi

¹ O'zbekiston Respublikasi davlat Statistikasi qo'mitasi.O'zbekistonda ta'lim.T.:2015. 123-132-betlar.

² Do'stlik bayrog'i. Gazeta. 13-oktyabr, 2015 yil, № 82.

³ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni, millat qilishga xizmat etsin. T. "O'zbekiston". 1998. 24 – bet.

keng o`rganilmoqda, to`plangan tajribalar ommalashtirilmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidlanganidek, «agar biz haqiqatdan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo`lsak, yoshlarni tayyorlash bilan jiddiy shug`ullanishimiz, zamonaviy kasblarni egallashda ularga yordam berishimiz kerak»¹

Uzluksiz ta`lim tizimining bo`g`inlaridan biri ta`lim tizimini yangilash jarayonini jadallashtirish, bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o`rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur masala to`g`risida o`z fikr mulohazalarni aytish vaqti keldi deb, o`ylaymiz. Fikrimizcha, O`zbekistonda ta`lim tizimi taraqqiyotida xorij tajribasidan foydalanish undagi muammolarni aniqlash va tegishli xulosalar chiqarish tarixchilarimiz tomonidan tadqiq etilishi zarur bo`lgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Maktab tarix ta`limida xorij ta`limi tajribasidan foydalanish jarayonini Navoy viloyati umumta`lim maktablari, akadem litseylar va kollejlarda misolida o`rganish tadqiqot obyekti sifatida olingan.

Viloyat va asosan Navoiy shahar umumta`lim maktablarida joriy etilgan va hozirda amalda o`quv jarayonida qo`llanilayotgan xorij tajribalarini o`rganish va tahlil qilish tadqiqot predmeti qilib olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mustaqillikka erishgan ilk kunlarimizdan boshlab O`zbekistonda ta`lim tizimi taraqqiyotida xorij tajribasidan foydalanish ularning faoliyati tarixini tadqiqotlar asosida tahlil qilish, dissertasiya ishining asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot davomida hal qilishi lozim bo`lgan quyidagi vazifalar belgilandi:

- Mustaqil O`zbekistonning Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari bilan ta`lim sohasidagi aloqalarini yoritish;
- O`zbekistondagi xorijiy oliy o`quv yurtlari va ular bilan hamkorlik munosabatlarini o`rganish;
- Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari ta`lim tizimining

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod–O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. «Sharq». 1999. 42 –bet.

o`ziga xos xususiyatlari, o`qitilish uslublari, bir- biridan farqi va muammolarini yoritish;

-Ta`lim tizimida xalqaro hamkorlik , investitsion aloqalar, natijalari va istiqboli;

-Tarix ta`limini o`qitishda xorij ta`limi tajribasidan foydalanish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ta`lim muassasalarinig xorij ta`lim muassasasi bilan aloqalari tarixini tadqiq va tasnif etishda mazkur soha yo`nalishlari bo`yicha yozilgan asarlar va manbalar, hujjatlarda muammolarning yechilishi, tajribalari, ijrosi tadqiqot etildi. Adabiyotlarning nazariy, uslubiy asoslari tahlil etilib, muammolarning yoritilishi bilan bog`liq ilmiy mohiyati aniqlanib, tarixiy haqiqatni tiklashga harakat qilindi.Shuningdek, mazkur adabiyotlar, manbalar internet ma`lumotlari va hujjatlarida aks etgan shu sohadagi yangiliklar tarixiy haqiqatlarni qay darajada aks ettirganini aniqlash imkoniyatini berdi. Ayniqsa, bugunda ta`lim tizimi muassasalarining muammolari xolisona,dialektik asosda o`rganilishi dissertatsiyada yangi nazariy xulosalarning chiqarilishini ta`minladi.

Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi.O`zbekistonda ta`lim tizimi taraqqiyoti va tarixini zarur yo`nalishlari bo`yicha izohlab, ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qilgan tadqiqotlar yetarli darajada. Mazkur ilmiy ishlarda respublikamizda ta`lim tizimining tarixiy taraqqiyoti va istiqbolini tadqiqot qilishga qaratilgan. Bularga:Q.Ergashev,A.Choriyev, A. Sadiyev, R. Tolibov va boshqa olimlarning qator ilmiy ishlarini ko`rsatish mumkin.Mazkur asarlarda O`zbekistonda ta`lim tizimi, umumta`lim, kasb- hunar kollejlari va akademik litseylarning rivojlanish tarixi yoritilishiga harakat qilingan¹. Lekin ta`lim tizimida hudud nuqtai nazarda qaraganda Navoiy viloyati kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning tarixiy rivojlanish taraqqiyoti haqida

¹ Ergashev Q.O`zbekiston xalq ta`limining rivojlanish tarixi.. T. "O`qituvchi" 1998.Чориев А. Проблемы народного образования педагогических кадров Узбекистана. Т., Фан, 1997. Саъдиев А.Преподавания истории народов Узбекистана.Т.,“Укитувчи”, 1993. J.Yo`ldoyev. Xorijda ta`lim.T.:“Sharq”,1995.P.H.Толибов.Развитие и совершенствование системы средних специальных образование и подготовки кадров специалистов в Узбекистане. (Опыт и проблемы) Автореф. канд. ист. наук.Т. 1993. Saidaxmedov N. S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.T.,2003.Azarov Y.P.Bolalarni sevish sanati. T. "O`qituvchi", 1992.

mustaqil tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shu sababli ta'lim tizimida, jumladan, Navoiy viloyati ta'lim muassasalarida islohotlarning borishi, moliyaviy resurslarni jalb etish xususiyatlari, ayniqsa, muassaslarda xorij ta'limi tizimi tajribalaridan foydalanish, o'qitishning muqobil samaradorligiga erishish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash va ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq muammolarni chuqurroq o'rganish zarurati dissertasiya mavzusini tanlashga sabab bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertasiya ishini yozishda dialektik metodga tayandik. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o'rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, an'anaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari dissertasiya ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Ta'lim muassasalarining, jumladan, Navoiy viloyatidagi shu ta'lim muassasalarining tarixini tadqiq va tasnif etishda xolislik va tarixiy - qiyosiy metoddan foydalandik. Shuningdek, ta'lim muassasalarining tarixining adabiyot va manbalarida yoritilishini tadqiq etish va tasniflashda Q. Ergashev, F. Ergashev kabi tarixchi olimlarning fundamental tadqiqotlari¹ va Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi, hamda Navoiy viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi joriy arxivi hujjatlarida bayon qilingan nazariy xulosalarga tayandik.

Tadqiqotning ilmiy - nazariy va amaliy ahamiyati. Ta'lim muassasalari, jumladan, Navoiy viloyati ta'lim muassasalarining tarixini tadqiq va tasnif etish, ta'lim sohasida tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga, tarixiy voqealarning sabab va maqsadlari turlicha baholangan yoki ziddiyatli qarashlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o'quv yurtlarida tarix ta'limi bo'yicha maxsus kurslar o'tishda,

¹ Ergashev. Q. O'zbekiston xalq talimining rivojlanish tarixi. T.: "O'qituvchi", 1998. Ergashev F. Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan. T.: "Akademiya", 1998. Qodirov B. Ta'lim to'g'risidagi islohotlar maqsad va yo'nalishlari. T.: "O'zbekiston". 1999.

darslik, o`quv qo`llanmalari va dasturlar tuzishda foydalanish mumkinligi, dissertatsiyaning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning manbalari. Dissertasiya ishini yozishda O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tomonidan nashr etilgan ilmiy asarlar, maqolalar, ashyoviy materiallar, shuningdek, internet ma`lumotlari, Navoiy viloyat umumta`lim va o`rta-maxsus, kasb-hunar ta`limi boshqarmasi, Navoiy viloyat Xalq ta`limi boshqarmasi joriy arxivi hujjatlari dissertant tomonidan o`rganilgan asarlar, internet ma`lumotlari va matbuot materiallari natijalari asos qilib olindi. Shuningdek, mustaqillik davrida mazkur mavzuda uyushtirilgan davra suhbatlari materiallari, chop etilgan ilmiy maqolalar, davriy matbuot, dissertasiyalar va avtoreferatlardan ham keng foydalanildi.

Tadqiqotning jamoatchilik etiboridan o`tishi. Mazkur dissertatsiya Navoiy Davlat pedagogika institutining «Tarix o`qitish metodikasi» kafedrasida bajarildi. Kafedra yig`ilishida muhokama qilinib himoyaga tavsiya etildi. Ilmiy ishning asosiy mazmuni Navoiy davlat pedagogika instituti professor - o`qituvchilari va talabalarining an`anaviy ilmiy konferensiyalarida qilgan maruzalarida o`z ifodasini topgan. Tadqiqot yuzasidan 4 ta ilmiy maqola va axborotlar nashr qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertasiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Bizning fikrimizcha, ta`lim muassasalari, jumladan, Navoiy viloyati ta`lim muassasalarinig xorij ta`lim tizimi bilan aloqalarini tarixini o`rganish ko`p qirrali va bu mavzu hali ko`plab ilmiy izlanishlarni taqozo etadi. Bunga hozirda hamma imkoniyatlar mavjud. Sir emaski bu yo`nalishda barcha to`siqlar yopildi, ma`naviy hayot, mafkuraviy kishanlar iskanjasidan xalos bo`ldi. Endilikda tarix fanida yangicha nazariy, uslubiy asoslar shakllanmoqda. Shunday oshkoralik, hurfikrlik sharoitida ta`lim sohalari yo`nalishlarida ham ijobiy o`zgarishlar ko`zga tashlanmoqda. Jumladan, xorij ta`limi tarixiy tajribasidan foydalanilmoqda. Bu esa, istiqlol vazifalarini hal qilishga qodir bo`lgan yoshlarning yangi avlodini shakllanishiga ko`maklashmoqda.

I. Bob. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish.

1. Mustaqil O'zbekistonnig Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ta'lim sohasidagi aloqalari, natijalari va istiqboli.

Milodgacha bo'lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, O'rtayer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog'lab kelgan Buyuk Ipak yo'lining ulkan, beqiyos rolini baholashning o'zi qiyin. "Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi alohida rol o'ynadi. Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G'arb olamidagi ulug' alloma va mutafakkirlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar yetkazildi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, g'oya va kashfiyotlarini o'rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga keldi"¹ deb ta'kidlaydilar muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov.

Mazkur yo'l nafaqat yuqorida zikr etilgan hududlar o'rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit'alar va davlatlar o'rtasida axborot almashuvini ta'minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog'oz va boshqa ko'plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo'jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, shuningdek, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritgach biz yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'ydik. Xalqimizning xohish irodasiga, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda mustabid tizim tartib qoidalarini tubdan isloh qilish, uning o'rnida mohiyat e'tibori bilan butunlay yangi-erkin ba'zan iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azmu qaror qildik. Bu maqsadga erishish uchun islohotlarni amalga oshirishning shakl va usullari tanlash xususida olimlar, mutaxassislar, keng jamoatchilik vakillari fikrlari bilan hisoblanildi, jahon xalqlar

¹ Karimov I.A. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati. (16.05.2014).T.: 2014.

ilg'or tajribalari o'rganildi, ularning xalqimiz hayot tarziga va milliy an'analarimiz mosligi hisobga olindi. Ayniqsa, ta'lim sohasini isloh qilish, uni jahonning ilg'or davlatlari standartlari talabi darajasiga ko'tarish borasida amaliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Albatta, mamlakatimiz qo'lga kiritayotgan bunday ulkan yutuqlar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Biroq, eng muhimi, O'zbekiston bugungi davr talabi hamda uning xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha sohalarda bo'lgani kabi, ta'lim sohasida ham erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmasdan, ularni yanada mustahkamlash va olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, butun ta'lim sohasini ham modernizatsiya qilish yo'lidan qat'iy bormoqda.

O'zbekiston rahbariyati shunday bir sharoitda, xalqimiz, Vatanimiz manfaati, yosh avlod kelajagini o'ylab, ta'lim-tarbiya sohasi ravnaqi uchun zarur barcha kuch va imkoniyatlarni topib, ularni ishga solmoqda. Shu bois mamlakatimiz jahon jamoatchiligi tomonidan ta'lim-tarbiyaga ulkan e'tibor berayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 362 ta akademik muassasa, oliy o'quv yurtlari va tarmoq muassasalari mavjud. Ularning 101 tasi ilmiy-tadqiqot instituti, 55 tasi oliy o'quv yurtlari tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot laboratoriya va bo'limlari, 32 tasi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va eksperimental korxonalar, 30 tasi axborot-hisoblash markazlaridir. Fan sohasida 46 mingga yaqin kishi tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, xususan, bu ulug' vazifani amalga oshirishning asosiy sharti va garovi bo'lgan zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga ulkan e'tibor qaratilayotgani beqiyos rol o'ynamoqda. Bu haqda so'z yuritganda, yurtboshimiz tomonidan 1990- yil 4- avgustda, hali sobiq mustabid mafkura hukmron bo'lib turgan bir paytda kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish masalasini kun tartibiga qo'ygan edi¹. Yurtimiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya tizimining mazmun-mohiyati, sifati va samaradorligini tubdan o'zgartirishda ayniqsa Kadrlar

¹ Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston" 2011. 16-17- betlar

tayyorlash milliy dasturining ahamiyati beqiyos bo'lmoqda. Ayni shu dastur asosida yurtimizda 9+3 sxemasi asosidagi 12 yillik majburiy bepul ta'lim tizimi shakllandi. Oliy ta'lim tizimi bakalavriat va magistratura bosqichidan iborat ikki pog'onali tizimga o'tkazildi.

O'tgan davrda mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob beradigan 1554 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji barpo etildi, mavjud 9765 ta maktabning barchasida keng ko'lamli qurilish, rekonstruksiya, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, 300 ga yaqin musiqa va san'at maktabi, 1300 dan ziyod bolalar sporti ob'ekti qurilib foydalanishga topshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi natijasida 1536 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablarining qariyb 9 mingtasi, ya'ni, deyarli hammasi, 1800 dan ortiq sport zali namunaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital rekonstruksiya qilindi. 2014-yilda hammasi bo'lib, 540 dan ziyod ob'ekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimediya vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi. O'zbekistonda har yili davlat byudjeti xarajatlarining 35 foizdan ortig'i ta'lim sohasiga yo'naltirilmoqda va bu yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etmoqda.¹ Bunday ko'rsatkichlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida kamdan-kam uchratish mumkin.

Hozirgi vaqtda yurtimizdagi 68 ta oliy ta'lim muassasasida 261,3 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda. Agar O'zbekistonda yashayotgan 30 milliondan ortiq aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya sohasida yaratilayotgan bunday ulkan imkoniyatlarning mohiyati va ahamiyati yaqqol ayon bo'ladi. 2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-

¹ "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. –T.: O'zbekiston, 2012. 6-7-betlar.

texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi. Yoki, Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlardagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari negizida Andijon, Samarqand, Buxoro, Nukus shaharlarida filiallariga ega bo'lgan Toshkent davlat stomatologiya instituti tashkil etildi. Shuningdek, Sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi tashkil qilindi.¹

Bugunda mamlakatimizda jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallari tashkil etilgan. Ayni vaqtda Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G. Plexanov nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti, I. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetining filiallarida talabalar jahon ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim olayotgani e'tiborga molikdir. 2014 -yilda Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida yana bir universitet, "Inxa universiteti" tashkil etildi.

Mamlakatlarimizning ta'lim, kadrlar tayyorlash va madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Chunonchi, ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jang'armasi, Germaniyadagi Texnika-viy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YUNESKO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Koreya va boshqa davlatlar oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorlik tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekistonning Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ta'lim sohasidagi aloqalari kengaymoqda.

¹ I.A. Karimov. "Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari" ga bag'ishlangan ma'ruzasi. "Do'stlik bayrog'i". Gazeta. 1915 yil, 20 yanvar.

Xitoy Xalq Respublikasi bilan mamlakatimiz o`rtasida iqtisodiyot, ta`lim, fan va texnika sohalaridagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Hozirda yurtimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 455 korxonada faoliyat yuritmoqda. Ularning 70 tasi yuz foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Yurtimizda Xitoyning 71 kompaniyasi vakolatxonasi ishlab turibdi. Ta`lim sohasida davlatlar va idoralararo, jumladan, o`zbek va xitoy tillarini o`rganish doirasida talaba va stajyorlar almashish tobora ko`paymoqda. Toshkentdagi Konfutsiy nomidagi institutda har yili 350 dan ziyod tinglovchi saboq oladi. 2010-yilning iyun oyida Xitoy millatlar markaziy universiteti rus tili va Markaziy Osiyo xalqlari tillari fakultetida o`zbek tili bo`limi ochildi. 2012-2013- o`quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o`zbek tili o`qitilishi yo`lga qo`yildi. Shuningdek, ikki tomonlama kelishuvga muvofiq ShHT doirasida XXR hukumati 2012-2013 -o`quv yilida o`zbekistonlik 120 talaba va stajyorga grant ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o`zbekistonlik yetmishga yaqin talaba tahsil olmoqda. Tashrif doirasida imzolangan Samarqand shahrida Konfutsiy institutini tashkil etish bo`yicha hamkorlik to`g`risidagi bitim ta`lim sohasidagi o`zaro hamkorlikni yanada faollashtirishga xizmat qilmoqda. Binobarin, ikki xalq o`rtasidagi "Buyuk Ipak yo`li" dan boshlangan asriy madaniy aloqalar qayta tiklanib, tobora rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2003-yilda Xitoyning Chanchun shahrida o`tgan 6-jahon haykaltaroshlari forumi doirasida buyuk miniatyurachi Kamoliddin Behzod haykali ochildi. Bu o`zbek madaniyati namoyandasiga Xitoyda o`rnatilgan ilk haykaldir.

O`zbekiston va Yaponiya xalqlarini ko`p asrlik do`stlik va o`zaro hurmat rishtalari bog`lab turadi, bu rishtalar ikki ming yillik tarixga ega bo`lib, ularning ildizi Buyuk Ipak yo`li davriga borib taqaladi. Bugunda Yaponiya davlati bilan ta`lim sohasidagi hamkorlik samarali tarzda rivojlanib bormoqda. Mamlakatlarimiz o`rtasidagi akademik almashinuv ham jadal taraqqiy etmoqda. Yaponiya o`zbekistonlik yosh mutaxassislarni tayyorlashda izchil yordam ko`rsatib kelayotir. Xususan, kadrlarni tayyorlash uchun stipendiyalar taqdim etish loyihasi (JDS) doirasida boshqaruv, davlat siyosati, iqtisodiyot va huquq sohasida faoliyat olib borayotgan yosh o`zbekistonlik davlat xizmatchilari Yaponiya oliy o`quv yurtlari-

da magistratura bosqichida ta'lim olishmoqda. Mazkur dastur bo'yicha 200 dan ortiq o'zbekistonlik mutaxassis Yaponiyada ta'lim olmoqda, kelajakda ular respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning hayotga tadbiq etilishi hamda mamlakatlarimiz o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikning chuqurlashishiga o'z hissasini qo'shishlariga aminmiz. Bulardan tashqari, Inson resurslarini rivojlantirish O'zbekiston-Yaponiya markazining faoliyatiga alohida to'xtalish lozim. O'tgan yili 10 yoshga to'lgan mazkur tashkilot yuksak darajadagi biznes o'quv kurslari va biznes-treninglarni tashkil etish orqali mamlakatingizda xususiy tadbirkorlarni tayyorlash ishiga har tomonlama ko'maklashmoqda. 2011-yil oktyabr oyida Sukuba universitetida ikki mamlakat talabalari ishtirokida ikkinchi O'zbekiston - Yaponiya akademik anjumani hamda 2011-yil 1- noyabr kuni Nagoya universitetida har bir mamlakat oliy o'quv yurtlarining 10 nafardan ortiq rektorlari qatnashgan, O'zbekiston va Yaponiya oliy o'quv yurtlari rektorlarining qo'shma majlisi o'tkazilgan, ta'lim sohasidagi hamkorlik mustahkamlanib borayotganidan guvohlik beradi.¹

O'zbekistonning janubiy hududida ilk buddizm yodgorliklarini o'rganishda taniqli yapon olimi, arxeolog K.Kato katta hissa qo'shdi. O'zaro aloqalarni yanada rivojlantirishga qo'shgan hissalar uchun K.Kato O'zbekiston Bank-moliyaviy akademiyasi sobiq birinchi prorektori T.Kitamura va Vaseda universitetining rektori T.Okushima «Do'stlik» ordenlari bilan taqdirlandilar. Ayni paytda 2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Vaseda va Soka universitetlarining «Faxriy doktori» unvoni berildi. 2004 yilda Tokiodagi Soka universiteti hududida buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o'rnatildi. Toshkentda esa II jahon urushida O'zbekiston hududiga kelib qolgan va shu yerda halok bo'lgan harbiy asrlarni yod etish uchun «sakura bog'i» barpo etildi.² Bulardan tashqari, YUNESKO va Yaponiyaning Trast jang'armasining Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha qo'shma loyihasi doirasida ham faol hamkorlik olib

¹ Узбекистан-Япония: 20 лет плодотворного сотрудничества, 28 января, 2012 г. www.jahonnews.uz.

² Рахимов. М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. Т.: «Yangi Nashr». 2011. с.-97.

bormoqda. Xususan, Yaponiya ko'plab mamlakatlardan o'tgan Buyuk Ipak yo'lidagi ob'yektlarni Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha Markaziy Osiyodagi tayyorgarlik ishlariga ko'maklashmoqda

Zamon bilan hamnafas qadam tashlash har doim muvaffaqiyatlar omili bo'lgan. Koreya Respublikasining kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotgan "O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini axborotlashtirish" loyihasini to'liq amalga oshirish ham asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu maqsadda Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazini tashkil etish uchun loyiha doirasida Koreya Respublikasidan 1552 ta o'quv kompyuter sinflari va multimediya studiyasi hamda veb-portal uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar olib kelindi. Kelishuvga muvofiq multimediya studiyasi ishga tushirildi. 15 nafar mutaxassisimiz Koreya Respublikasida malaka oshirib qaytdi. Bugungi kunda ular o'z bilim va ko'nikmalarini boshqa hamkasblariga ham o'rgatib, orttirgan tajribalari bilan o'rtoqlashmoqdalar.¹

Gumanitar hamkorlik ham izchil rivojlanib borayotir. 1992-yildan Toshkentda Koreya ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutida Koreys tili va madaniyati markazlari, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Axborot texnologiyalari markazi ochilgan. Toshkent «O'zbekiston–Koreya» kasbga tayyorlash markazini ochish loyihasi ta'lim sohasidagi hamkorlikning yana bir muvaffaqiyati bo'ldi. U yerda har yili 360 nafar yigit-qiz kompyuter yig'ish, grafika, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, avtomobillarga xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha tahsil oladi. Respublika bo'yicha jami, 9 oliy o'quv yurtida koreyashunoslik kafedralari ochilgan va 22 maktabda koreys tili o'rgatiladi.² Toshkentda "O'zbekiston-Koreya" kasbga tayyorlash markazini ochish loyihasi ta'lim sohasidagi hamkorlikning yana bir muvaffaqiyati bo'ldi. U yerda har yili 360 yigit-qiz kompyuter yig'ish, grafika, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, avtomobillarga xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha tahsil oladi.

¹ «Xalq so'zi» gazetasi, 2012 yil, 4 fevral. (Sh. Ergashev. Ta'limda yangicha yondoshuv)

² «Xalq so'zi» gazetasi, 2012 yil, 2 mart.

2012-yil aprel oyida Toshkentda bo`lib o`tgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash–mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzuidagi xalqaro konferensiya O`zbekiston Respublikasida ta`lim va ma`rifatni rivojlantirish borasidagi ilmiy yondashuvlarning yuqori mezonlarini namoyon qildi. Xususan, konferensiya ishtirokchisi Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi deputati Kim Yong Gu “Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov rahnamoligida amalga oshirilayotgan bosqichma- bosqich islohotlar siyosati o`zining to`g`riligini to`la tasdiqlaganini qayd etdi”¹.

Navoiy viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan “Chason” Koreys milliy madaniy markazining faoliyati diqqatga sazovor. Markazning asosiy faoliyati, millatlararo do`stlik rishtalarini mustahkamlash, milliy an`analarni davom ettirish, kam ta`minlangan oilalarga, nogiron, ko`ngli yarim insonlarga xayriya yordamlari berib borishdan iborat. Shuningdek, yoshlar bilan tinimsiz tadbirlar o`tkazish, turli mavzuda kechalar va tantanalar tashkil etish, ularni Vatanga fidoiy insonlar bo`lib yetishishiga ko`maklashib kelmoqda. Uni tashkil etilishida Kim Genadiy Petrovich, Xe Yuriy Vasilyevich, Pan Ella Ivanovnalari jonbozlik ko`rsatganlar. Markazga A.A.Kim raislik qilmoqda. Markaz qoshida koreys tilini o`rganish bo`yicha o`quv kursi tashkil etilgan. Ayni paytda Markazga qarashli sport klubi ishlab turibdi. “Koreys millatiga mansub insonlar orasida davlat tilini puxta o`rgangan, ravon so`zlaydiganlar borligi bizni bag`riga sig`dirgan, non-tuz berib farovon yashashimizga imkoniyat yaratib bergan o`zbek xalqiga chuqur ehtirom belgisidir”², deb ta`kidlaydi, Markaz raisi A.A. Kim.

Bugunda Janubiy Koreya Respublikasi bilan ta`lim sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. 1992- yildan beri Toshkentda Koreya ta`lim markazi faoliyat olib bormoqda va tanlov asosida Koreyada til o`rganish bo`yicha amaliyotlarni, oliy o`quv yurtlari o`qituvchilari va talabalari uchun malaka oshirish kurslarini o`tkazib kelmoqda. Toshkent davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat jahon tillari institutida Koreys tili va madaniyati va kompyuter markazlari ish olib

¹ Murodov X. va boshqalar. O`zbekiston jahon hamjamiyati safida. T. 2000. 24 – bet.

² “Do`stlik bayrog`i”, gazeta. 2010 yil, 20 may.

bormoqda. Respublika bo'yicha jami 13 oliy o'quv yurtida, 30 maktab, litsey va kollejlarda koreys tili o'rgatiladi¹.

Bugunda O'zbekiston, Sharqning Koreya, Singapur, Malayziya, Indoneziya va boshqa davlatlari bilan ham ta'lim sohasidagi hamkorlikni izchil davom ettirmoqda. Xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchixonasi rahbarlari Oliy o'quv yurtlarida bo'lib, ma'naviyat - ma'rifat turkumida, ta'lim sohasida tajriba alma-shishni yo'lga qo'ydilar. Chunonchi, 2009-yil may oyida "Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga" Indoneziya Davlatining muxtor elchisi janob Sabaruddin Shaxri tashrif buyurdi. Indoneziya Davlatining muxtor elchisi institut rahbariyati bilan rasmiy suhbat o'tkazdi. Suhbatdan keyin elchi Indoneziya Markazi faoliyati bilan tanishib chiqdi. U institutda tashkil etilgan Markaz faoliyati va u yerda qator talabalar indoneziya tilini o'rganayotgani bilan tanishdi. Sabaruddin Shaxril «Indoneziya-kecha va bugun» mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada Indoneziya Davlatining geografik joylashishi, xalqi, tili, madaniyati va dini, tarixi, davlatning tashqi siyosati, O'zbekiston va Indoneziya orasidagi bo'lgan do'stona munosabatlar haqida fikr yuritildi. Ma'ruzadan keyin institut talaba va o'qituvchilari o'zlarini qiziqtirgan savollariga kerakli javob oldilar va Indoneziya davlati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ldilar. 2010- yil 27- mart kuni institutga Indoneziya Davlati Gunadarma Universiteti rektori Ye.Margianti xonim boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. «Indoneziya Markazi» rahbari N.Nomozov Markaz faoliyati, uning oldidagi vazifalari rejalari va yaqin kelajakda ikkala tomon o'zaro hamkorlik bitimlarini imzolashga kelishib oldilar.

2010- yil 30- sentyabr kuni institutga Xitoy Davlati Tzyan-Syan Universiteti-ning (Urumchi) bir guruh olimlari institutga tashrif buyurdilar. Mehmonlar orasida Universitet prorektori, professor Toshpulot Tiypa, rejalashtirish bo'limi boshlig'i Lay Chen, Universitet ishlari bo'limi boshlig'i Li Yun Shin, ilmiy bo'lim boshlig'i Chang Jun, xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Syau-Zen, chet tillari instituti direktori Van Linlar bor edilar. Mehmonlarning tashrifidan maqsad o'zaro

¹ Murodov X. va boshqalar. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. T. 2000. 24 – bet

hamkorlik shartnomasini imzolash, ikki oliy o'quv yurtlari orasida professor - o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashinuvini amalga oshirish edi.

2008- yil 17- noyabrda O'zbekiston va Malayziya hukumati o'rtasida oliy ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandum imzolandi¹. Shu davrdan boshlab Malayziya O'zbekistonning etakchi institutlari va akademik litseylari, umumta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. ASEAN Xalqaro yuridik asossuasiyasi sekretari Santappu Radxakrishnaning fikricha, "yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularni demokratik ruhda tarbilash, so'z erkinligi va diniy bag'rikenglik, ona tiliga hurmat, qadriyatlariga sodiqlik masalalari tajribasi, uslublarini shu yoshlardan o'rganish kerak."²

Bugunda Malayziya davlati bilan ta'lim sohasida hamkorlik kengaymoqda. "Munosabatlarda yangi davrda yangicha hamkorlik, o'zaro ishonch va bir-birini tushunish masalalari shakllanib bormoqda"³

2011-yilda "Samarqand iqtisodiyot va servis instituti" talabalari, aspirantlar va yosh olimlar uchun Malayziya elchixonasi tomonidan tashkil etilgan Malayziya Multimediya Universiteti va «Malaysian Cooperation Development Program» dasturi taqdimoti o'tkazildi. Ayni paytda shu institutning etakchi olimlari Malayziyada o'z stajirovkalarini o'tkazib, ilg'or tajribalarini o'rganib, malakalarini oshirib qaytmoqdalar. 2014 -yil 5-7- mayda Malayziya ta'lim vaziri Muxiddin bin Hoji Muhammad Yassin Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.Vaxabov bilan uchrashdi. 2014 yilning sentabr oyida 500 ga yaqin o'zbek mutaxassislari MTHD seminarlarda ta'lim olishdi.

Xulosa qilib ta'kidlash o'rinliki hamkorlik ayniqsa, ta'lim sohasidagi aloqalar davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri bo'lib, turli-tuman ehtiyojlarini qondirish va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuvi pirovard, aholining turmush darajasini oshirishga yordam bermoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining veb-sayti [www. Lex.uz](http://www.Lex.uz).

² Fuqarolik jamiyati. 2014 yil, №1.(37) 66-67 betlar. Qarang: В Узбекистане проведена огромная работа по укреплению демократии.// 25 dekabr, 2009 г.// www.uza.uz.

³ Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. Ташкент. 2005. стр-6

2. Sharqiy va Janubi- Sharqiy Osiyo mamlakatlarining O`zbekistondagi Oliy o`quv yurtlari va ular bilan hamkorlik munosabatlari.

Global dunyoda inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda kadrlarni tarbiyalash borasida milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadlarini ro'yobga chiqarish ehtiyoji ortib borayotgani sir emas. Shu sababli mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda yurtimizda "Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda"¹.

Biz o'z mustaqilligimiz va suverenitetimizning dastlabki kunlaridan boshlab o'tmishda shakllangan ta'lim tizimini tubdan isloh qilmasdan turib, eski kommunistik mafkuraning qolip va aqidalaridan butunlay voz kechmasdan, yoshlarning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlamasdan turib yangi jamiyatni barpo etib bo'lmaydi, degan qat'iy xulosaga kelgan edik.

Qisqa fursatda zamonaviy me'morchilik loyihalari asosida 1500 ta ana shunday kollej va litseylar barpo etdik. Ilgari xorijlik mehmonlarga ekzotika namunalarini ko'rsatardik. Bugun esa ularga bolalarimiz qanday o'qiyotgani, ularga qanday zamonaviy sharoitlarda bilim berayotganimizni, qanday avlod voyaga yetayotganini ko'ring, deymiz. Yana shuni ta'kidlamoqchimanki, ushbu kollejlarda tahsil olayotgan yoshlarimiz ikki-uch mutaxassislikka ega bo'lish bilan birga, xorijiy tillarni, aksariyat hollarda ingliz tilini o'rganmoqda"² deb ta'kidladilar muhtaram Yurtboshimiz..

Bundan tashqari mamlakatimizda jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallari tashkil etildi. Ayni vaqtda Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan

¹ "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. –T.: O'zbekiston, 2012. 6-7-betlar.

² Karimov I.A. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy svilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. (16.05.2014). T.: 2014. 8-9-betlar.

Xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetining filiallarida talabalar jahon ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim olayotgani e'tiborga molikdir. Shuningdek, ta'lim muassasalarining yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnikaviy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YUNESKO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Indoneziya va boshqa davlatlar oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorlik tobora kengayib bormoqda.¹

Ta'lim sohasida davlatlar va idoralararo aloqalarni rivojida Xitoy davlatining alohida o'rnini bor. Bugunda, xalqlar madaniyatini yaqinlashtirish, ta'lim sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish sohasida manfaatli qator shartnoma va bitimlar tuzilgan bo'lib, ular ijobiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'zbek va xitoy tillarini o'rganish doirasida talaba va stajyorlar almashish tobora ko'paymoqda. Toshkentdagi Konfutsiy nomidagi institutda har yili 350 dan ziyod tinglovchi saboq oladi. 2010-yilning iyun oyida Xitoy millatlar markaziy universiteti rus tili va Markaziy Osiyo xalqlari tillari fakultetida o'zbek tili bo'limi ochildi. 2012-2013- o'quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o'zbek tili o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Tashrif doirasida imzolangan Samarqand shahrida Konfutsiy institutini tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlikni yanada faollashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ikki tomonlama kelishuvga muvofiq va ShHT doirasida XXR hukumati 2012-2013 o'quv yilida o'zbekistonlik 120 talaba va stajyorga grant ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o'zbekistonlik 70 ga yaqin talaba tahsil olmoqda.

2015 yil 6 iyun kuni Shanxay Universiteti prorektori Shia Shiaohe boshchiligidagi 6 kishidan iborat delegatsiya kutib olindi. Unda SamDChTI va XXR oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan hamkorlik bitimlari, ikki davlat

¹ Jamiyat va boshqaruv. Jurnal. (Burhon Jahongirov. Xorij davlatlari bilan ilmiy aloqalar). 1 – son. 2010 yil, 55-56-betlar.

rahbarlari o'rtasida imzolangan kelishuvga asosan, SamDChTI qoshida ochilgan "Konfutsiy instituti" va uning faoliyati to'g'risida suhbatlashildi. SamDChTI va Shanxay Universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga doir bir qancha masalalar, jumladan talaba almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar kelishib olindi.

2015-yil 30-iyun kuni Xitoyning Shinjon-Uyg'ur Avtonomiyasi ta'lim boshqarmasi boshlig'i Yibulayn Toirxan, boshqarma xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Vang Lili bo'lim mutaxassisi Gulinishalar ishtirokidagi rasmiy uchrashuvda Xitoy tili mutaxassisligi bo'yicha magistratura dasturini ishlab chiqish va o'qitishni tashkil qilishda o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasida fikr almashinildi. 2016 yil 26 aprel kuni XXR elchixonasi bilan hamkorlikda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Shanxay, Sinszyan agrar universiteti bilan birgalikda xalqaro konferensiya o'tkazildi.¹

O'zbekiston va Yaponiya xalqlarini ko'p asrlik do'stlik va o'zaro hurmat rishtalari bog'lab turadi, bu rishtalar ikki ming yillik tarixga ega bo'lib, ularning ildizi Buyuk Ipak yo'li davriga borib taqaladi. Ma'lumki, Ikkinchi jahon urushidan so'ng sovet davrida O'zbekistonda qurilish ishlariga jalb qilingan yapon mahbuslari orasida Fukusima prefekturasidan bo'lgan asirlar ko'p edi. Yapon asirlari tomonidan qurilib, hatto kuchli zilzila chog'ida ham buzilmagan va Markaziy Osiyodagi madaniyat markazlaridan biri hisoblanadigan Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatri shu davrning mahsulidir. Ikki xalqning madaniy-ma'naviy yaqinligi omili mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalarning kengayishiga ko'maklashmoqda.

Ayniqsa, ta'lim sohasidagi hamkorlik samarali tarzda rivojlanib bormoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi akademik almashinuv ham jadal taraqqiy etmoqda. Yaponiya o'zbekistonlik yosh mutaxassislarni tayyorlashda izchil yordam ko'rsatib kelayotir. Xususan, kadrlarni tayyorlash uchun stipendiyalar taqdim etish loyihasi (JDS) doirasida boshqaruv, davlat siyosati, iqtisodiyot va huquq sohasida faoliyat olib borayotgan yosh o'zbekistonlik davlat xizmatchilari Yaponiya oliy

¹ Xalq so'zi. 2016 yil, 27 aprel.

o'quv yurtlarida magistratura bosqichida ta'lim olishadi. Mazkur dastur bo'yicha 200 dan ortiq o'zbekistonlik mutaxassis Yaponiyada ta'lim olmoqda.¹Bulardan tashqari, Inson resurslarini rivojlantirish O'zbekiston-Yaponiya markazining faoliyatiga alohida to'xtalish lozim. O'tgan yili 10 yoshga to'lgan mazkur tashkilot yuksak darajadagi biznes o'quv kurslari va biznes-treninglarni tashkil etish orqali mamlakatimizda xususiy tadbirkorlarni tayyorlash ishiga har tomonlama ko'maklashmoqda. O'zbekiston-Yaponiya akademik anjumani hamda 2011-yil 1- noyabr kuni Nagoya universitetida har bir mamlakat oliy o'quv yurtlarining 10 nafardan ortiq rektorlari qatnashgan O'zbekiston va Yaponiya oliy o'quv yurtlari rektorlarining qo'shma majlisi o'tkazilgani ta'lim sohasidagi hamkorlik mustahkamlanib borayotganidan guvohlik beradi. 2014-yilda Tokio Xorijiy tadqiqotlar universitetida (TUFS) IV-O'zbekiston-Yaponiya akademik forumi bo'lib o'tdi. Unda Vaseda, Nagoya, Meyji Sukuba universitetlarining professor-o'qituvchilari hamda Kunchiqar mamlakat oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar ishtirok etdilar.¹

2011-yil oktyabr oyida Sukuba universitetida ikki mamlakat talabalari ishtirokida bu tadbirlar ta'lim sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga kuchli turtki bo'ldi, deb ishonch bilan aytish mumkin. 2012- yilda Skuba shahrida yosh ijodkorlarimiz asarlarini targ'ib qiladigan "O'zbekiston madaniyati kunlari" o'tkazildi. Muntazam ravishda ikkala mamlakat talabalari ishtirokida akademik forumlar uyushtirilmoqda.²

So'ngi yillarda Yaponiya poytaxtining yirik Xosey universiteti o'zining O'zbekistonga oid tadqiqotlari bilan ajralib turadi. Bu universitet Toshkent davlat sharqshunoslik institutida keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan, universitetda mamlakatimiz yoshlari ham tahsil olmoqda. Yaponiyaning yana bir universiteti Toyo ham qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirmoqda.¹

¹ Fuqarolik jamiyati, Jurnal . 2014 yil, №1 (37) // Tokio Xorijiy tadqiqotlar universiteti (TUFS) IV-O'zbekiston-Yaponiya akademik forumi// - 87-88 betlar.

² Узбекистан – Япония: укрепляя многовековые связи и сотрудничество на современном этапе. 28 апреля 2012 г. // www.jahonnevs.uz.

Butun jahon tajribalarini o`rganish, ta`lim tizimlaridagi eng ijobiy yutuqlarni amalga tadbii qilish hozirgi davrda katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajribalar, shu jumladan, Janubiy Koreya tajribasini Respublikamiz ta`lim tizimi doirasida ommalashtirish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini bermoqda.

Bugunda respublikamizning ko`pgina oliy o`quv yurtlarida Janubiy Koreyaning yetakchi ilmiy hamda ta`lim muassasalari bilan talabalar va professor – o`qituvchilar almashinishi yo`lga qo`yilgan, shu bilan birga xalqaro konferensiyalar tashkil etilmoqda va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Janubiy Koreya davlatining hajmi 35 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan loyihasi hisobidan 200 ta kasb hunar kolleji va akademik litseylar zamonaviy jihozlar bilan ta`minlanib, 240 nafar rahbar, pedagog va muhandis-pedagog kadrlar Janubiy Koreya mamlakatida malaka oshirib qaytdilar. Shunigdek, Janubiy Koreya ilmiy jihozlar ishlab chiqarish shirkati tomonidan Samarqand turizm kollejiga 350 ming dollar miqdoriga teng bo`lgan o`quv-laboratoriya jihozlari va kompyuter texnikasi o`rnatildi.²

Janubiy Koreyaning ta`lim tajribasini har tomonlama o`rganish va foydalanish ijobiy natija berishi shubhasiz. Chunki Janubiy Koreya maktablarini kompyuterlashtirish va Internetga ulanish bo`yicha dunyoda ikkinchi o`rinni egallamoqda. Hatto uzoq-uzoq qishloqlarda ham o`quvchilar Internetga kirish imkoniyatiga ega bo`lmoqdalar. Hozirda ikki milliondan ortiq oila yuqori tezlikdagi internet xizmatidan foydalanmoqda. Koreyada ixtiro qilingan texnologiyalar bugungi kunda butun dunyoni o`ziga jalb etmoqda.

2014-yilning sentabr oyidan boshlab yurtimizda, yuqorida zikr etilganidek, Janubiy Koreyaning Inxa universiteti filiali faoliyat ko`rsatmoqda. Uning asosiy yo`nalishini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter muhandisligi sohasidagi ta`lim tashkil etadi. Yoshlarimizning yuzlab iqtidorli vakillari Koreyaning Inxa universiteti filialida tahsil olmoqda. Bu esa ularning bilim va

¹ Узбекистан добился значительного прогресса и больших успехов в обеспечении всеобщего доступа к базовому образованию, 18 февраля 2012 г // www.jahonnevs.uz.

² Uzluksiz ta`lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. // Sulaymonova G.T. Uzluksiz ta`lim tizimi samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarning ahamiyati // T.: 2014 yil, № 2, 119-123- betlar.

malakasini oshirishda keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Universitet o`qitish jarayonida erishgan ilg`or tajribalari bilan respublikamiz ta`lim muassasalarini qurollantirmoqda, qabul shoasida tashviqot va targ`ibot ishlarini yo`lga qo`ygan. Jumladan, Toshkent shahridagi Inxa universitetining birinchi prorektori S. Park Navoiy viloyati informatika va elektron sanoat kasb-hunar kollejida bitiruvchi yoshlar bilan uchrashuv o`tkazdi. Uchrashuvda videoroliklar namoyish etildi, o`quvchilar universitet erishgan yutuqlar bilan tanishdilar.¹

Bugunda Koreyaning Inxa universiteti filiali yon turdosh ta`lim muassasalari bilan ham hamkorlikni yo`lga qo`ygan. Oqitishning ilg`or uslublarini qo`llash va ta`lim samaradorligini oshirish ilg`or peragogik hamda innovatsion texnologiyalarni mamlakatimiz ta`lim tizimiga keng joriy qilish borasida samarali aloqalar davom etmoqda.

2015- yil 13- iyul kuni Janubiy Koreyaning Hansung (Hansung) universiteti rektori prof. Kang Shinil, prof. Choye Yong Shik va Shin Irina va SamDChTI rektori G`X.Raximov, Xalqaro aloqalar bo`limi boshlig`i O. Yusupov, SamDChTI qoshidagi Konfutsiy instituti direktori SH.Safarov, Osiyo mamlakatlari tillari kafedrasini mudiri A.Raximovlar ishtirokidagi uchrashuvda ta`lim muassasalari o`rtasida hamkorlik shartnomasi imzolash, professor - o`qituvchi va talabalar almashinuv dasturlari, hamkorlikda qo`shma konferensiyalar tashkil etish to`g`risida muzokaralar olib borildi

O`tgan asrning boshlarida asos solingan Sinapur ta`lim tizimi o`n yillar mobaynida mamlakatning eng tajribali va oqil insonlari tomonidan e`tibor va diqqat bilan shakllantirilgan. Singapurda ta`lim har taraflama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni nazarda tutub, yoshlarning axloqiy, intellektual, jismoniy va ijtimoiy-estetik rivojlanishini qamrab olgan. Mamlakat rahbari quyidagi uchta asosiy iqtisodiy yo`nalishni rivojlantirishga harakat qilmoqda –sog`likni saqlash, biomeditsina, ta`lim.

Singapur nafaqat janubiy - sharqiy Osiyo, balki butun dunyoda global ta`lim markazi bo`lishga intilib mazkur tizimga katta investitsiyalar ajratmoqda.

¹ “Do`stlik bayrog`i”. Gazeta. 19 may, 2015 yil, № 40.

Jumladan, mamlakat hukumati istiqbolda 150 mingdan ziyod xorijiy talabalarni o`qishga jalb etishni rejalashtirmoqda. Bu o`z o`rnida, mamlakatga 2,4 mlrd. dollar foyda keltiradi hamda Singapur yalpi ichki mahsulotining 5% ga o`shishini ta`minlaydi. Mamlakatda ta`lim tizimiga sarflasarflanadigan xarajatlar milliy byudjetining 20 % ni tashkil etadi.¹

O`zbekiston hudidida faoliyat ko`rsatayotgan Singapur menejmentni rivojlantirish instituti oliy o`quv yurtlari bilan hamkorlik munosabatlarini o`rnatganiga ko`p vaqt bo`lganiga qaramasdan ijobiy natijalarni qo`lga kiritmoqda. Davlat statistika qo`mitasi bergan ma`lumotga ko`ra davlatlar o`rtasidagi o`zaro savdo aylanmasi ko`rsatkichlari 2012- yil yakuni bo`yicha 107,9 mln.dollarni tashkil qilgan (eksport 86,9mln. dollarni, import 21mln.dollarni). O`zbekistonda 25 ta Singapur kapitali ishtirokida qo`shma korxonalar elektro-texnika, tekstil, oziq-ovqat, ta`lim hamda mashinasozlik sohalarida faoliyat olib borishmoqda.² Ayniqsa, ta`lim sohasidagi hamkorlik ikkala mamlakat uchun keng manfaatli imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Ikki tomonlama do`stona va o`zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishda tamal toshi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007- yil 24-26-yanvarida Singapurga qilgan davlat tashrifi cho`gida qo`yildi. 2007- yildan Singapurda O`zbekiston Respublikasi elchixonasi faoliyat olib bormoqda. 2007- yildan boshlab, har yili O`zbekiston va Singapurda, Singapur Biznes Federatsiyasi bilan hamkorlikda qo`shma biznes forumlar o`tkazib kelinmoqda. 2008- yildan boshlab Toshkentda Singapur Rivojlanish menejment Instituti (MDIS) «Bank ishi», «Biznes boshqaruvi», «Turizm» va «Biznesda zamonaviy IT» yo`nalishlari bo`yicha faoliyat olib bormoqda. Singapur texnik hamkorlik dasturi doirasida O`zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari vakillari turli qisqa muddatli kurslarda qatnashib kelishmoqda. Magistrlar va ilmiy xodimlar almashuvi, ilmiy tadqiqotlar borasidagi o`zaro hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda.

¹ Uzluksiz ta`lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. // Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta`lim tizimi- Singapurda ta`lim // T.: 2013 yil, № 6, 119-125- betlar.

² Shu yerda: 121-bet.

II. Bob. Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.

1. Xitoy, Yaponiya davlatlari ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish dasturi hayotimizga muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida uzluksiz ta'limning zamonaviy talablarga javob beradigan yaxlit tizimi yaratildi. Bu tizim ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarini – maktabgacha va maktab ta'limidan tortib o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim bo'g'inini, shuningdek, xalqaro me'yorlarga mos holda bevosita fan doktori darajasini olish uchun dissertatsiya himoyasini nazarda tutadigan oliy ta'limdan keyingi bir bosqichli ta'limni o'ziga qamrab oladi. O'zbekistonda yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimiga asos solindi.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida albatta biz dunyo mamlakatlarining ta'lim sohasidagi tarixiy tajribasidan unumli foydalanishga harakat qildik. Biz buni inkor etmaymiz. Zero, istiqbolga erishgan yosh mamlakatimiz uchun hali bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir paytda ta'limni isloh qilish jarayonida tajriba yetishmas, xorij davlatlarining ilg'or tajribalaridan foydalanish va o'rganish lozim edi. Lekin bu to'g'ridan to'g'ri nusxa ko'chirish bo'lmasdan, xalqimiz mentaliteti va qadriyatlari asosidagi islohot, bosqichma-bosqich shakllanib bordi. Ayni paytda bu jarayon 1997- yilda boshlanganligi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini" qabul qilganligimiz fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan izlanishlarda istiqbolli yo'nalishlarning tadqiq etilishi ustivor ahamiyatga ega. Binobarin, qadriyatlarimizga yaqin Sharqning ilg'or davlatlaridan biri bo'lmish Xitoy davlatining ta'lim tizimi va o'ziga xos jihatlarini o'rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xitoy qadimiy va novqiron mamlakat. Hozirda Xitoy Xalq Respublikasida 56 millat vakillari yashaydi. Ular ichida xanzular 1 mlrd 200 mln kishidan ko'proqni tashkil etadi va ijtimoiy –siyosiy yetakchi millat hisoblanadi.

XXRda milliy ta'limni rivojlantirish 50-60 yillik tarixni qamrab oladi. 1952-

yilda Sin Szyan hukumati uchta tilda: uyg`ur, qozoq, mo`g`ul tillaridagi darsliklarni chop etuvchi “Sin Szyan xalq nashriyoti”ni tashkil etdi.1955- yilda Sin Szyan ma`rifiy nashriyoti darsliklarni besh tilda: uyg`ur, qozoq, mo`g`ul, qirg`iz va sibo tillarida nashr eta boshladi.XXR da 1950-1958-yillar ichida Guyjou,Yunan,Guansi,Sinxay va Tibet milliy avtanom rayonlarida milliy institutlar tashkil etilib, mutaxassislar tayyorlashga e`tibor kuchaydi.Maorif vazirligi qoshida milliy ta`lim departamenti tashkil etilgan.Uning vazifasi xan va kichik millatlar ta`limini nazorat qilish, joylarda ikki tillikni taraqqiy ettirish, milliy ta`lim moliyaviy ta`minotini nazorat qilishdan iborat.XXR da Ta`lim vazirligi va Davlat qo`mitasi qoshida faoliyat ko`rsatayotgan ta`lim departamenti kichik millatlar ta`limida kechayotgan mana shu jarayonlarni boshqarish, nazorat qilish, tartiblashtirish ishlarini amalga oshiradi.

XXRda ta`limni takomillashtirish maqsadida hozirgacha 6 ta qonun qabul qilingan. Bular: XXRda ilmiy daraja haqidagi qonun (1980-y);XXRda majburiy ta`lim to`grisidagi qonun; (1986-y); XXRda Murabbiylar haqida qonun(1993-y); XXRda Ta`lim to`g`risida qonun (1995-y); XXRning kasbiy ta`lim to`g`risidagi qonuni(1998-y); XXRda oliy ta`lim to`g`risidagi qonun(1998-y)¹

XXRda 9 yillik majburiy ta`lim tizimiga amal qilinmoqda.Maktabgacha asosiy ta`limga-boshlang`ich va oddiy o`rta ta`lim (quyi va oliy bosqich) kiradi. 1999- yilda hukumat umumta`lim maktablar saviyasini oshirish maqsadida maorif sohasi bilan bog`liq islohotlarni chuqurlashtirish haqida qaror qabul qildi.Bu bilan oliy ta`limda o`qitishning samarali tizimlarini yaratishda,ta`lim sohasini yanada ilmiy va oqilona muvofiqlashtirishda, maorif resurslaridan unumli foydalanishda, joylarda uzliksiz ta`limni yaxshilashda qo`shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan,Pekin universitetida,Sinxua va Politexnika institutlarida tayyorlov kurslari yo`lga qo`yildi.Hozirda yuzlab oliy dargohlarida tayyorlov kurslari yo`lga qo`yilgan.

¹ Jamiyat va boshqaruv. //Shoazm Shazamanov.XXR: ta`limni rivojlantirishning siyosiy-huquqiy asoslari// Jamiyat va boshqaruv. Jurnal. 2010 yil, 1-son,127 bet.

2007- yildan boshlab, pedagog –o`qituvchilarni tayyorlovchi universitet va institutlarda bepul ta`lim olish yo`lga qo`yildi. Bugunda kichik xalqlar tillarida yaratilgan o`quv qo`llanmalari, ma`rifiy ishlar muayyan millat ta`lim sifati darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Yaponlarning aksariyat qismi uchun ta`lim olish juda muhim. Umumiy ta`lim tizimi Yaponiyada boshqa mamlakatlarga qaraganda bir necha asr oldin paydo bo`lgan. O`qishga har doim katta e`tibor berilgan. Yaponiya ta`limining shakllanishi 1867—1868- yillarda boshlangan. Yaponiya o`z oldiga ikki vazifani:

1. Boyish. 2. G`arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish.

Mazkur ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta`lim tizimini tubdan o`zgartirish va rivojlantirishni maqsad qiladi. 1872- yilda «Ta`lim to`g`risida» gi qonun qabul qilindi. Bunda Yapon ta`limi g`arb ta`limi bilan uyg`unlashtiriladi.

1908-yil Yaponiyada boshlang`ich ta`lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo`nalishidagi dastlabki kollej tashkil etildi. Bular:

- Maktabgacha ta`lim muassasalari
- Boshlang`ich maktab,
- Kichik o`rta maktab,
- Yuqori o`rta maktab,
- Oliy ta`lim tizimlariga kiruvchi o`quv yurtlari.

Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta`lim kurslariga jalb qilinadi Majburiy ta`lim. Ta`limning pog`onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo`lgan bolalarni o`z ichiga oladi. 6 yillik boshlang`ich ta`lim va 3 yillik kichik o`rta maktab, 9 yillik majburiy ta`limni tashkil etadi va u bepuldir. Yuqori bosqich o`rta maktab 10, 11, 12- sinflarni o`z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo`limlari mavjud. O`quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o`qiydilar. Bitiruvchilarning 25,3% ga yaqini odatda kollej yoki universitetlarga, yana boshqa qismi esa yuqori yoki texnika kollejlariga borishadi.¹ Yaponiyaning O`zbekiston maktablaridan farqi shundaki, Yaponiyada o`quv yili 240 kun (AQSh 180). O`quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi ta`til iyun oyining

¹ Узбекистан- Япония: образовательный обмен совершенствуется. 16 декабря 2011 //veb-sayti. www. jahonnews.uz

oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi. Dorilfununlarga esa katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. Kirish imtihonlari qiyin. Chunki har bir o'quvchi yoki talaba uchun alohida savollar tayyorlanadi. Talabalar maktabdan tashqari har kuni kechqurun tayyorlov kurslariga borishadi. Bu kurslar "Juku" yoki "Yobiko" deb ataladi.¹

Yaponiya maktablarida sinf xonalari 40 va undan ko'proq o'quvchiga mo'ljallanadi. Sinf o'quvchilari darsdan oldin sinf, maktab xonalari, yo'laklar bog'lar tozaligiga e'tibor berishlari lozim. Ba'zi maktablar o'quvchilardan maxsus kiyim kiyishlarini talab qilinadi. Avvalgi tartibga ko'ra o'g'il bolalar qora kiyimda va galstukda bo'lishar edi, bugun esa ular havo rang va boshqa ranglarni kiyishyapti. Qizlar esa ko'k va buramali yubkada bo'lishlari kerak. Lekin bu libos vaqti bilan o'zgarishi mumkin.

Deyarli barcha maktab o'quvchilari ingliz tilini o'rganishadi. Ular 6 yoshdan boshlab ingliz tilida gaplashadilar. Albatta, yapon tili ham ularning o'qishlarida muhim o'rin egallaydi. Yapon tilida yozishni o'rganish juda mushkul va uzoq vaqt talab etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar doimiy harakatda bo'lishadi. Yaponlarda 3 xil alfavit mavjud va o'z kelib chiqish tarixi bor:

Birinchisi- "kanji" bo'lib, u VI asrda Xitoydan kelgan va yapon tiliga kiritilgan iyerogliflardir. Bu alfavit juda murakkab bo'lgani uchun yaponlar yana ikita alfavitni yaratishgan. **Ikkinchisi**, "hirakana" deb ataladi. Unda 46 ta harf bo'lib, undan sof yapon so'zlarini yozishda foydalanishadi. Uchinchisi "katakana" dir. Unda ham 46 ta "katakana" harf bo'lib, chetdan o'zlashgan so'zlar yoziladi.

Maktablarda "hirakana" va "katakana" dan foydalanishadi. Kanji 2000 ga yaqin iyeroglifdan iborat. Maktabning boshlang'ich sinfni tugayotgan o'quvchilari 1000 ta kanjini bilishlari va o'qiy olishlari kerak. Maktablarda asosiy fanlar: yapon tili, ijtimoiy fanlar, matematika, musiqa san'ati, fizika va laboratoriya ishlaridan iborat. So'ngi yillarda Yaponiya maktablarida "robot-pedagog" yaratildi.

¹ Tarbiya. Jurnal. Yaponiyada maktab ta'lim tizimi. 2007 yil, 1-son, 46-47 betlar.

Bunday robot o`quvchilar barcha maktablarga tarqatilishi mumkin emas ekan. Chunki uning imkoniyatlari, tabiiyki, o`qituvchilikidan ko`ra ancha yuqori. Yaponiyada 460 ta universitet bo`lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o`qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 nafardan talaba to`g`ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo`linadi: 1-bosqichi turar joyda o`tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo`yicha test sinovlaridan o`tadilar. Bu sinovlardan o`tgan o`quvchilar universitetlarga yo`llanma oladilar va yana sinovdan o`tadilar. Xususiy universitetlarga esa to`g`ridan-to`g`ri test topshiriladi. Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o`qish muddatini cho`zish mumkin (4 yillik o`qish 5-6 yilgacha cho`zilib ketishi mumkin). Kollejlar:

- 1-kichik kollej;
- 2-texnik kollej
- 3-maxsus kollejlarga bo`linadi.
- Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3- yoki 4-kurslariga qabul qilinadi.

Yaponiya bolalari, erta bolalik yillaridan boshlab katta yoshlilarga nisbatan hurmat rihida tarbiyalanadi. Yaponiy maktablarida o`qituvchilar nihoyatda hurmat qilin "O`qituvchi - millat iftixori" yoki "O`qituvchidan uch qadam tashla, lekin soyasiga qadam tashlama" deb javob berishadi yapon o`quvchilari.¹ Maktabda o`qish 8.05 da ertalabki badantarbiyadan boshlanadi. U 20 minut davom etadi. So`ngra yuvinishadi va ertalabki nonushta qilishadi. 8.45 da esa dars boshlanadi. Sensey (o`qituvchi) dars o`tadi. 4 soatdan keyin esa o`quvchilar tushki ovqatga chiqishadi. Ayni paytda har bir o`quvchi sinf xonasini tozalaydi, yig`ishtiradi. Hatto sport zali ham tozalanadi. Umuman Yaponiyaning ta`lim tizimi tajribasidan o`rganiladigan jihatlari anchagina. Uning ta`lim tizimi tajribasidan keyingi yillarda dunyo mamlakatlari o`z ta`lim tizimini rivojlartirishda foydalanib kelmoqda.

¹ Uzluksiz ta`lim. Ilmiy –uslubiy jurnal. 2012 yil, 3-son, 102-108 betlar //А.Кусаинов. Японский феномен образования//.

Lekin Xitoy va Yaponiya davlatlarining umumta`lim maktablarida amalda bo`lgan ta`lim tizimidagi yo`nalishlaridan aynan nusxa ko`chirish kerak emas. Ularning ta`lim tizimida ham yutuqlar bilan birgalikda muammolar ham talaygina. Jumladan, o`quv jarayonini tashkil etishda ular G`arb ta`lim tizimiga taqlid qilishgan. Binobarin, o`qitish jarayonida o`ziga xoslik tomoni mavjudki, undan nusxa olish, bizning mentalitetimizga, qadriyatimizga to`g`ri kelmaydi. Bular:

1. Maktabgacha ta`lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Vaholanki, bolalar bog`chasida asos solinishini ular yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Bizda esa diniy tashkilotlar ta`lim tizimi ishiga aralashmaydi.

2. Umumta`lim tizimida Xitoyda, boshlang`ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig`izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o`qiydi. Dars yuklamalari ham ko`proq.

3. Yaponiyada esa maktablarida sinf xonalari 40 va undan ko`proq o`quvchiga mo`ljallangan. Bizda esa 25-30 nafar o`quvchiga mo`ljallangan.

4. Yaponiyada o`quv yili 240 kun (AQShda 180 kun). O`quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o`tiladi. Bizda: 1-sentyabrda boshlanib, 25 mayda tugaydi.

5. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo`linadi: 1-bosqichi turar joyda o`tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo`yicha test sinovlaridan o`tadilar. Bu sinovlardan o`tgan o`quvchilar universitetlarga yo`llanma oladilar va yana sinovdan o`tadilar. Xususiy universitetlarga esa to`g`ridan-to`g`ri test topshiriladi. Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o`qish muddatini cho`zish, 5-6 yilgacha.

6. Fikrimizcha, Xitoy va Yaponiya davlatlari ta`lim tizimidagi aynan nusxa ko`chirish kerak emas, balki ta`lim tizimimizda xalqimiz qadriyatlari, asriy ajdodlar ta`lim -tarbiya tajribalari hamisha ustun turishi kerak. Lekin xorij ta`lim tizimi, ayniqsa, o`qitish jarayoni bilan bog`liq tajribalaridan foydalanish, bizdagi mavjud ta`lim tizimini rivojlanishiga yanada ko`maklashuvi mumkin.

2. Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya davlatlarida ta`lim tizimi, o`qitish uslublari, farqi va muammolari.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta`lim sohasini isloh etishga qaratilgan me`yoriy hujjatlar, jumladan, «Ta`lim to`g`risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga izchil tatbiq etilishi natijasida respublikamiz ta`lim tizimida muhim ijobiy yangilanishlar yuz berdi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Konstitutsiyamizning 17 yilligiga bag`ishlangan ma`ruzasida bunday degan edi, «Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o`z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa–bunday davlat jahon taraqqiyoti yo`lidan chetda qolib ketishi muqarrar»¹. Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tajribasidan ma`lumki, qaysi mamlakat hukumati ziyobaxsh intellekt egalariga, iste`dod sohiblariga e`tibor berib, ularning moddiy ta`minotiga ko`maklashgan bo`lsa, o`sha mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tez sur`atlar bilan rivojlangan.

Bugunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati beqiyos bo`lmoqda. O`zbekiston rahbariyati shunday bir sharoitda, xalqimiz, Vatanimiz manfaati, yosh avlod kelajagini o`ylab, ta`lim-tarbiya sohasi ravnaqi uchun zarur barcha kuch va imkoniyatlarni topib, ularni ishga solmoqda. Shu bois mamlakatimiz jahon jamoatchiligi tomonidan ta`lim-tarbiyaga ulkan e`tibor berayotgan davlatlardan biri sifatida e`tirof etilmoqda.

Bu jarayonda ilm-fan va texnika taraqqiyotini ta`minlovchilarni, iste`dodli yoshlarni har tomonlama rag`batlantirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya kabi yuksak taraqqiy etgan davlatlarning ta`lim tizimi sohasidagi tajribalarini o`rganish, yangi ta`lim texnologiyalarini olib kirish kabi qator amaliy vazifalarni bajarishda bosh-

¹ Karimov I.A. O`zbekiston Konstitutsiyasi–biz uchun demokratik taraqqiyot yo`lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O`zbekiston, 2009. –30-bet.

qosh bo`ldi. Yurtimizda dunyo mamlakatlarining qator oliy o`quv yurtlari faoliyat ko`rstmoqda, aloqalar davom etmoqda.

Janubiy Koreyadagi odamlar ta`limga kelajakda jamiyatda o`z mavqeini egallash vositasida qarashadi. Bu tabiiy albatta. Insonning o`z shaxsini namoyon eta olish layoqati yoshlikda egallagan bilimiga bevosita bog`liq.

Mamlakatning hozirgi ko`rinishidagi o`rta ta`lim maktablari 1880- yilda paydo bo`lgan bo`lsa, Janubiy Koreya Respublikasi tashkil topishi bilan hukumat ta`lim sohasini qayta isloh qilishga kirishdi. Ta`lim haqidagi Qonun 1948- yilda qabul qilingan. Ta`lim tizimiga asos qilib an`anaviy g`arb modeli olingan:

- 6 yil — quyi maktab,
- 3 yil — o`rta,
- 3 yil — oliy maktab;
- 4 yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi;
- 2 yil chuqur o`rganilgandan so`ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo`lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o`quv yurtlarining ishlari yaxshi yo`lga qo`yilgan. Koreyada 500 ta oliy o`quv yurti bor, ularning 400 tasi xususiydir¹. Bugungi kunda Koreya savodxonlik darajasi yuqori bo`lgan mamlakatlar qatoridan joy olgan.

Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o`qishga kiradi. Talabalar soni bo`yicha Koreya dunyoda birinchi o`rinda turadi. Ayni paytda maktabgacha ta`lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab- ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982- yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog`chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang`ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig`izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o`qiydi. Dars yuklamalari ham ko`proq. O`yinlar, dam olish o`quv dasturiga

¹ Ta`lim Menejmenti. Jurnal. // Janubiy Koreya ta`limi boshqaruvi: kun tartibidagi muammolar. T.: 2007 yil, 1-son, 78-bet.

kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minut.

Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Koreyslar yana bir tilni-klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rga-nadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi.

- Hunar maktablariga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.
- Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.
- Davlat maktablarida diniy ta'limot o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan.
- Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi.
- Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega.
- Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.
- Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar.
- Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi.

- Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

Janubiy Koreyada ta'lim boshqaruvining asosi sifatli va zamonaviy ta'lim berishga qaratilgan. Buni ta'lim muassasalarida o'ziga xos tarzda olib boriladigan o'qitish va tarbiya usullarida, dars berishning ilg'or jihatlarida va albatta, mamlakat ravnaqiga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislar misolida ham ko'rish mumkin. Ammo ta'lim tarbiyaning namunali yo'lga qo'yilishi Janubiy Koreya ta'lim sohasida muammolar yo'q degan tasavvurni bermaydi. Chunki bozor qonuniyatlarining ta'lim sohasiga ta'siri tufayli raqobatning yuzagakelishi davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalarining ham rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Bu esa uning muayyan huquqiy me'yorlariga asoslanishi va mamlakat qonunchiligiga muvofiq boshqarish lozimligini, mislsiz katta axborotlarni o'zlash-tirishga nisbatan nazoratni yo'lga qo'yishni talab etadi. Shu bois, ana shunday muhim masalalarning ayrimlariga to'xtalish joizdir.

Ma'lumki, Janubiy Koreya ta'lim tizimida xususiy maktablarning o'rnini katta. Ushbu mamlakatda xususiy maktablar ta'limi to'g'risidagi qonun 1963-yilda qabul qilingan. Bunga sabab ularning mustaqilligi va muxtoriyatni ta'minlash, bu turdagi maktablarning ta'lim tizimidagi rolini oshirish va ana shu tarzda ularning rivojlanishiga ko'maklashishdan iboratdir. Lekin qonunga nisbatan ixtiloflar kelib chiqqan. 2004-yilga qadar 32 marta qayta ko'rib chiqilgan¹.

2005-yil 9-dekabrda Janubiy Koreya Milliy kengashi xususiy maktablar ta'limi haqidagi qonunning yangi tahririni qabul qildi. Amaldagi "Yolin uridan" partiyasi yetakchi muxolif partiya "Xannara"ning qarshiligiga qaramay uni parlamentdagi boshqa siyosiy kuchlar bilan hamkorlikda amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bunga javoban "Xannara" qonunning yangi tahriri va hukumat siyosatiga qarshi qaratilgan norozilik chiqishlarini uyushtirdi. Gap shundaki, ikki partiya a'zolari kelisholmayotgan aniq masalalar mavjud. "Yollin uridan" qonunni

¹ Ta'lim Menejmenti. Jurnal. //Janubiy Koreya ta'limi boshqaruvi: kun tartibidagi muammolar. T.: 2007 yil, 1-son, 79-bet.

ko`rib chiqishidan maqsad xususiy maktablarda korrupsiyani bartaraf etish va boshqaruvdagi odillik darajasini oshirish ekanligini ma`lum qilsa, "Xannara" buni hukumatning xususiy maktablarni o`z nazoratiga olishga urinishi, deb tushunmoqda. Lekin bu ta`lim tizimida va umuman Koreya ijtimoiy tuzumida yagona muammo emas. Mamlakat mutaxassislarini tashvishga solayotgan bir masala ham mavjud. Bu internet tarmog`idan erta yoshlikdan foydalanishdir.

Bolalar erta yoshdan internetdan foydalanishmoqda. 2005- yil ma`lumotlariga ko`ra, Janubiy Koreyalik olti yoshdan katta bolalarning 72,8 foizi internetdan foydalanadi. Mazkur ko`rsatgich, 2004 yilgadagi holat bilan qiyoslaganda 2,6 foizga yuqoridir. Shu davr mobaynida kompyuterga egalik qilayotgan kishilar soni ham 1,1 foizga o`sgan va 78,9 foizni tashkil etgan.

Koreyada ta`lim o`quvchi va talabalarning bilim darajasini farqlash, ularning qiziqishlarini o`rganish bilan bog`liq holda amalga oshiriladi. O`quvchi yoshlar orasida ruhiy jismoniy qobiliyat ham juda yuqori bo`lib, har bir ta`lim oluvchining o`sish imkoniyatini oshirish uchun alohida pedagogik chora-tadbirlar qo`llaniladi.

Singapur davlati nafaqat Osiyo qit`asida, balki dunyo miqyosida so`nggi chorak asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan davlatlardan bo`lib hisoblanadi. Aholi jon boshiga har yili ishlab chiqarilayotgan yalpi maxsulotning o`rtacha miqdori 2728 ming AQSh dollarini tashkil etadi. Singapurda tabiiy va yer osti boyliklari deyarli yo`q. Iste`mol uchun asosiy oziq-ovqat, meva-sabzavotlar xorijdan keltiriladi. Davlatning asosiy boyligi uning intellektual salohiyati. Singapur tarixan Buyuk Britaniya mustamlakasi bo`lgani uchun, uning ta`lim tizimi ko`p jihatlari bilan Britaniya ta`lim tizimiga o`xshash. Har yili o`rta maktablarni bitirgan yoshlarning 40% politexnika institutlariga, 40% kollejlarga, 20% ishlab chiqarishga boradi.¹

Kompyuterda ishlashni o`rganish asosan o`rta maktabda amalga oshiriladi. Kompyuterda ishlashni bilmagan mutaxassis ta`lim muassasalariga ishga qabul qilinmaydi. Bu sohada hukumat qabul qilingan reja bo`yicha 2002- yil oxirigacha

¹ Uzluksiz ta`lim. Ilmiy - uslubiy jurnal. // Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta`lim tizimi - Singapurda ta`lim// T.: 2013 yil, № 6, 122 bet..

maktablardagi har 2 o'quvchining biri kompyuter bilan ta'minlanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida kompyuterda ishlashni o'rganish muammosi yo'q. Oliy o'quv yurtining talabasi oliygohni bitiruv ishlarini amaliyotda qo'llaniladigan natija bilan yakunlashi shart va talaba bitiruv ishi natijasiga ko'ra ish joyi bilan ta'minlanadi. Talabalar 4-6 oy davomida ishlab chiqarish jarayonida amaliyot o'tadilar

Politexnika institutlarida talabalar 3 yil o'qiydi. Politexnika oliygohlari keng qamrovli bo'lib, ular tarkibida hatto davolash fakultetlari ham bor. Bakalavr, magistr hamda doktorlik dissertatsiyalari asosan universitetdagi ilmiy kengashlarda himoya qilinadi. Singapur qanchalik tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bo'lmasin, u yerda ham tajriba sifatida AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya na Xitoyning yetuk oliy o'quv yurtlari faoliyati o'rganilib kelinmoqda. Ta'lim muassasalari binolari ham yevropa mamlakatlaridagi o'quv yurtlari loyihalariga mos ravishda ishlangan. O'quv jarayonini tashkil qilishda Germaniya, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning tajribasi asos qilib olinib, ulardan yetuk professor-o'qituvchilar shartnoma asosida ishga taklif etiladi. Masalan, Kaneng texnologiya uniyersitetida 70 dan ortiq chet ellik pedagog dars beradi. Shuningdek ko'plab mamlakatlardan talabalar Singapurga kelib bilim olishadi. Texnologiya universiteti talabalarining 20-25% xorijiy mamlakatlar fuqarolaridir. Hozirgi paytda Singapurda 150 mingga yaqin xorijiy talabalar tahsil olishmoqda. Singapur o'quv muassasalari faoliyatidagi asosiy xususiyat, elektronika, ya'ni informatsion texnologiyalar sohasining jadallashganligidir.

Mamlakatning ta'lim sohasi byudjeti 7 mlr. dollarni tashkil etadi. Aholisi savodxonlik darajasi 96,1%, (erkaklar 98,1%, ayollar 94,1 %). ¹Singapur ta'lim muassasalarida 500 mingdan ziyod yoshlar ta'lim olishadi, shu jumladan, boshlang'ich maktabda 264 ming, o'rta maktabda 214 ming, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida 33 mingga yaqin. O'qish ikki tilda xitoy va ingliz tilida olib boriladi.

Uzluksiz ta'lim. Ilmiy - uslubiy jurnal. // Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta'lim tizimi - Singapurda ta'lim// T.: 2013 yil, № 6, 123- bet.

Singapur ta'lim muassasalarida baholash tizimi o'ziga xos jihatlarga ega. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi to'qqiz ballik tizim asosida baholanadi. (A1-eng yuqori, F9-eng past ko'rsatgich). Baholash tizimi quyidagicha: A1FA2- (a'lo), B3FB4 (yaxshi), C5FC 6- (qoniqarli), D7 (minimal ball), E8FF9 (qoniqarli).

Singapur ta'lim muassasalarining o'quvchi va talabalari ko'pincha xalqaro olimpiadalar va tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallab kelishmoqda. Jumladan, 2013 -yilda IMSS dasturi doirasida matematika va fan yo'nalishida o'tkazilgan xalqaro tanlovning natijalari quyidagicha: ¹

Mamlakat	Reyting	Matematika		Fan	
		Ochkolar	O`rin	Ochkolar	O`rin
Singapur	1	643	1	607	1
Yaponiya	2	605	3	571	3
Janubiy Koreya	3	607	2	565	4

Malayziya O'zbekiston mustaqilligini 1992- yil 1-yanvar kuni tan olgan va diplomatik aloqa o'rnatgan. Ikki tomonlama do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishda tamal toshi respublika rahbarining 1992- yilgi va Malayziya bosh vaziri Moxatxir Moxammadning 1993- yilgi rasmiy tashriflari chog'ida qo'yildi. Munosabatlardagi so'nggi muhim yangiliklar sifatida O'zbekiston davlat rahbarining 2005- yil oktabr oyidagi Malayziyaga va unga javoban 2008- yilda ushbu davlat bosh vaziri Ahmad Badaviyning O'zbekistonga davlat tashriflari qayd etildi va bu tadbirlar chog'ida o'zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarida bir necha hukumatlararo shartnomalar imzolangan.

Ikkita davlat ilm-fan va madaniyat jamoatchiligi o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida 1998- yil Toshkentda "O'zbekiston-Malayziya" do'stlik jamiyati tashkil etildi. 2010- yilning aprelida esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri D.Toshmuhamedovanning Malayziyaga javob safari uyushtirildi. Davlat

¹ Uzluksiz ta'lim. Ilmiy - uslubiy jurnal. // Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta'lim tizimi - Singapurda ta'lim// T.: 2013 yil, № 6, 122-123- betlar.

statistika qo`mitasi bergan ma`lumotga ko`ra davlatlar o`rtasidagi o`zaro savdo aylanmasi ko`rsatkichlari 2012- yil yakuni bo`yicha 3,6% ga o`sgani holda 84,633 mln.dollarni tashkil qilgan (eksport-23,708 mln.dollarni, import-60,924 mln.dollarni).Malayziya texnik hamkorlik dasturi (MTHD) doirasida tashkil etilayotgan qisqa muddatli o`quv kurslarida respublika vazirlik va tashkilotlari vakillari doimiy tarzda ishtirok etib kelishmoqda. 2013- yilda 500 ga yaqin o`zbek mutaxassislari MTHD seminarlarida ta`lim olishdi.

Malayziya ta`lim tizimi yaqin qo`shi davlatlari ta`lim tizimidan nisbatan farq qiladi. Maktabgacha boshlang`ich ta`lim 4yoshdan boshlanib 7 yoshgacha davom etadi.7 yoshdan umumta`lim maktabining 1- sinfiga qabul qilinadi. Milliy mansubligiga qarab maktabda o`quvchilar ikki guruhga bo`linib o`qiydilar. Biri to`liq davlat tomonidan moliyalashtirilgan (Sekolah Kebangsaan), ikkinchisi esa (Sekolah Jenis Kebangsaan), davlatdan qisman kredit, yordam olib o`z faoliyatini tashkil etadi. Birinchi guruhdagi o`quvchilar malay tilida, ikkinchi guruhdagilar mandarin (tamil) va xitoy tilida ta`lim oladilar. Lekin har ikki guruh uchun ingliz tili majburiy. O`quvchilar 3 yillik umumta`lim maktabida tahsil olgach, milliy davlat imtihoni topshiradilar. Keyin o`zlari tanlagan yo`nalish bo`yicha akademik litsey (Sekolah Menengah Atas, SMA), kasb-hunar (Sekolah Menengah Kejuruan, SMK),ta`limida tahsil olishlari mumkin.O`qish muddati 3yil. Shuningdek, ba`zi kasb-hunar kollejarida o`qish muddati 4 yil qilib belgilangan. O`qish tugagach 1-darajali diplom beriladi (D1-Profesional Ahli Pratama)¹. Malayziyada diniy ta`lim yo`nalishi ham mavjud bo`lib, o`qish muddati xuddi umumta`lim tizimidagi singari o`quv jarayoni dasturiga, davomiyliga amal qilinadi. Malayziyada 2800 ta o`rta maxsus bilim yurti faoliyat ko`rsatmoqda. Keyingi bosqichda insitut va universitetlarda o`qishni davom ettirish mumkin.Malayziyada 50 ta universitet,1270 ta xususiy oliy o`quv yurtlari bor.

¹ Погадаев, В. А. (2014) Университет Малайя — главная кузница кадров Малайзии — в: Тихоокеанское обозрение 2012—2013. М.: Центр изучения современных проблем Юго-Восточной Азии и АТР, Институт стран Азии и Африки МГУ им. М. В. Ломоносова, с. 319—327.

Shularning ichida Malayziya universiteti alohida mavqeni egallaydi. Ta'lim sohasiga davlat byudjetining 3,7% ga yaqin mablag'i ajratilgan.

Demak, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya davlatlarida ta'lim tizimi tajribasi bizning ta'lim tizimimiz rivojiga qanday ko'maklashi mumkin? Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi tajribasidan nimalarni olish mumkin?

1. Janubiy Koreyada davlat maktablarida diniy ta'limot o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etilgan. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Bizning umumta'lim tizimimizda ham "Odobnoma" fani o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Lekin dars soatlarini kengaytirish lozim deb o'ylaymiz. Shuningdek, bizda ta'lim islohoti davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Binobarin, davlat byudjetining 35% ta'limga sarflanayotgani fikrimizni tasdiqlaydi.

2. Singapurda hukumat qabul qilingan reja bo'yicha 2002 -yil oxirigacha maktablardagi har 2 o'quvchining biri kompyuter bilan ta'minlangan. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida kompyuterda ishlashni o'rganish muammosi yo'q. Binobarin, kompyuterda ishlashni bilmagan mutaxassis ta'lim muassasalariga ishga qabul qilinmaydi.

3. Singapur o'quv muassasalari faoliyatidagi asosiy xususiyat, elektronika, ya'ni informatsion texnologiyalar sohasining jadallashganligidir. Nazarimizda, ta'lim tizimimizda ushbu faoliyat turini jadallashtirish lozim deb o'ylaymiz.

4. Janubiy Koreyada hunar maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Bizda esa homiylik yo'lga qo'yilgan, xolos. Yoki, korxonalar qisman moliyaviy ko'maklashadi.

5. Malayziyada nogiron bolalarni o'qitish borasida boshqa Sharq davlatlariga qaraganda ancha ilgarilab ketgan. Ta'lim-tarbiyada yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash tajribasidan boshqa davlatlar bu yerga kelib oz tajribalarini oshirib qaytmoqdalar. Demak, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda Malayziya tajribasidan foydalanish muhimdir.¹

¹ Гумманистический подход в образовании, 8 мая, 2012г. // www. uza .uz.

III. Bob. Maktabda ta'limni tashkil etishda xorij ta'limi tajribasidan foydalanish.

1. Ta'limni tashkil etishda investitsion aloqalar.

Ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining bajarilishida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, xorij mamlakatlarining investitsiyalarini jalb etish muhim o`rin tutadi.

Ta'lim sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlik 2006- yildan boshlab keng yo`lga qo`yildi. Birgina, 2006-2007 -yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasining 2006-yilgi Investitsiya dasturi to`g`risida»gi qaroriga asosan xalq ta'limi tizimida Osiyo Taraqqiyoti banki ishtirokida 2 ta hamda Xitoy xalq Respublikasi bilan hamkorlikda 1 ta loyiha, ya'ni umumiy kredit miqdori 83,5 mln. AQSh dollariga teng jami 3 ta loyiha amalga oshirildi¹.

Mazkur loyihalar doirasida 2006- yilda jami 19,27 mln. AQSh dollarlik hajmda o`quvchilarni darsliklar va o`quv adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, 1000 ta maktab kutubxonalarida axborot resurs markazlarini tashkil etish, Davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish asosida ta'lim sifatini yaxshilash, umumiy o`rta ta'lim berish sifatini oshirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, o`quvchilarni masofadan o`qitish tizimini yaratish shuningdek, maktablarni zamonaviy komyuter sinflari bilan jihozlash ko`zda tutilgan edi. Shu dasturni bajarish uchun 2005-2006 yilda 1 mln. AQSh dollari miqdorida mablag`lar evaziga 100 komplekt o`quv kompyuter sinflari O`zbekistonga keltirildi.²

Dastlabki yillarda umumta'lim va kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun yangi binolar qurish va ularni jihozlash» I–bosqich loyihasi doirasida ularni zamonaviy o`quv mebel va jihozlari bilan ta'minlash ihlari boshlab yuborildi³. 2015- yilga kelib «O`zbekistonda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi yalpi ichki mahsulot tarkibida 12 foizdan ortadi. Jahon tajribasida esa bu

¹ Ta'lim Menejmenti. Jurnal. 2007 yil, 1-son, 12 - bet. (Y. Asadov. Maktab - kelajak ostonasi)

² Shu yerda: 13-bet.

³ Istiqolol va ta'lim. Xalq ta'limi mustaqillik yillarida. 1991– 2001. T. «Ma'rifat – madadkor». 2001. 28- bet.

ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Mamlakatda savodxonlik darajasi jahonda eng yuqorilardan biri bo'lib, bu boradagi ko'rsatkich 99,2 foizni tashkil etadi"¹. Ayni paytda Navoiy viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida 4 ta akademik litsey va 47 ta kasb-hunar kollejlari mavjud bo'lib, unda 129 ta'lim yo'nalishlari kesimida 55795 nafar o'quvchi yoshlar kasb-hunar sirlarini o'rganishmoqda. Ularga 4809 nafar pedagog, muhandis-pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari kasb-hunar sirlarini o'rgatishmoqda. Birgina Navbahor tumanida 38 ta umumta'lim maktabi 5 ta kasb-hunar kolleji, 2 ta BO`SM hamda bolalar musiqa va san`at maktabi faoliyat olib bormoqda².

1998-2015-yillar davomida Navoiy viloyati kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarga Xorijiy investitsiyalar jalb qilishi jarayoni quyidagicha bo'ldi: Osiyo Taraqqiyot banki (2 ta kasb – hunar kolleji 1 ta akademik litsey), Navoiy akademik litsey - 89,8 mln so'm, Konimex qishloq xo'jaligi kasb – hunar kolleji 83,3 mln, Tomdi agroiqtisodiyot kolleji 1042.9 mln. Jami 2,216,043 mln. so'mlik xorijiy investitsiyalar kiritildi. Bugunda «O'zbekiston axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qishloq xo'jalik ta'limini rivojlantirish loyihasi» va «Navoiy kompyuter va elektronika sanoat qishloq xo'jaligi kolleji» ga sarmoyalar kiritildi³.

1998-2015 yillar davomida Navoiy viloyati kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarga Xorijiy investitsiyalar jalb qilish quyidagi loyiha asosida amalga oshirilib kelingan:

1. Koreya Respublikasi hukumatining o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi rivojlantirish loyihasi. Navoiy texnika– iqtisodiyot kolleji, Navoiy konchilik kolleji, Karmana qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji, Xatirchi agroservis kasb-hunar kolleji, Xatirchi qishloq xo'jaligi kasb– hunar kolleji, Uchquduq konchilik kolleji,

¹ Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. Yurist media markazi. T., 2007. 104-bet

² Do'stlik bayrog'i, 2015 yil, 31 mart. № 26.

³ Navoiy viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasining joriy arxivi. (2015 yil hisoboti)

Xatirchi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejiga imtiyozlar berilgan.

2.Koreya hukumatining imtiyozli krediti bo'yicha 8 ta ta'lim muassasasi to'liq jihozlangan. Bular: Zarafshon sanoat kasb – hunar kolleji, Zarafshon akademik litseyi, Navoiy konchilik kolleji, Navoiy industrial - iqtisodiyot kolleji, Qiziltepa agroservis kasb – hunar kolleji, Qiziltepa «Buzoro qishloq xo'jaligi kasb – hunar kolleji, Navoiy tibbiyot kolleji, Navoiy akademik litseyi. Hozirda quyidagi kasb–hunar kolleji va akademik litseylarda jihozlanish davom etmoqda. Bular:Karmana qishloq xo'jaligi kasb–hunar kolleji,Xatirchi «Zarafshon» qishloq xo'jaligi kasb – hunar kolleji, Konimex qishloq xo'jaligi kasb – hunar kollejlari. Bu ta'lim muassasalariga jami bo'lib 420 mln.386 ming so'm mablag' ajratilgan.

3.Yaponiya hukumatning o'rta maxsus kasb – hunar ta'limini rivojlantirish loyihasi bo'yicha Xatirchi agroservis kasb – hunar kolleji 712 mln 999 ming so'm.Germaniya davlatining qurilish yo'nalishi bo'yicha imtiyozli krediti Xatirchi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejiga ajratilgan.

4.Polsha hukumatining imtiyozli krediti bo'yicha:Qiziltepa «Buxoro» qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji – 283,1 mln so'm, Navbahor «Istiqlol» sanoat kasb – hunar kolleji–254,9 mln so'm, jami: 559,423 mln so'm kredit mablag'lari ajratilgan.¹

Xalq ta'limi tizimi ayniqsa, akademik litseylar uchun 2006- yil 1-sentabrdan 1 – sinfga boradigan 520 698 nafar o`quvchilarga 4 mlrd. 947 mln. 576 ming, 900 so`m mablag` hisobiga 12 nomdagi o`quv qurollari «Prezident sovg`asi» sifatida taqdim etildi².

Bundan tashqari, 2006 -yilda boshlang`ich sinflarda tahsil olayotgan 724 ming 124 nafar kam ta'minlangan oila farzandlariga 4 nomdagi kiyim– bosh olib berildi. Buning uchun 16 mlrd. 274 mln.255 ming 500 so`m mablag` ajratildi. Shu-ningdek, «Mehribonlik», «Saxovat», «Muruvvat»uylari va boshqa ixtisos-

¹ Navoiy viloyat o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi boshqarmasining joriy arxivi. (2015 yil hisoboti)

² Shu yerda: (2006-2007 yil hisoboti)

lashtirilgan muassasalarning moddiy texnika bazasini yaxshilashga va ularni asbob–uskunalar, inventarlar bilan jihozlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida Navoiy viloyat ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati yanada kengaydi. Bugungi kunda viloyat xalq ta'limi YUNESKO, Amerikaning AKSELS tashkiloti, Amerika Ochiq jamiyati institutining «Soros» jamg'armasi, «Debatlar» dasturi singrai 11 ta xalqaro tashkilot bilan ish olib borayotir. Shuningdek, ushbu «Debatlar» dasturi tanlovlarida viloyatimiz akademik litseylar o'quvchilari ham muntazam ishtirok etib kelmoqda.¹ Navoiy shahridagi 1–gimnaziya va 17–maktab, Zarafshon shahridagi 1–gimnaziya va 13–maktablar o'quvchilariga ingliz tilini chuqur o'rgatish hamda AQSh ning ta'lim tizimi tajribalarini o'rganish maqsadida Amerikaning «Tinchlik» korpusi bilan hamkorlik o'rnatgan, xorijlik o'qituvchilar shartnoma asosida kelib, bizning maktablarimizda dars mashg'ulotlari o'tmoqdalar.

Prokter End Gembl kompaniyasi, British–Amerikan–Tobakko – O'zbekiston qo'shma korxonasi, Germaniyaning Gyote instituti, Fransiya elchixonasining ta'lim bo'limi, Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi, Osiyo taraqqiyoti va rivojlanish banki bilan hamkorlik o'rnatgani o'z samarasini bermoqda. O'tish davrida 13 nafar o'quvchi Xalq ta'limi vazirligi va Amerikaning AKSELS tashkiloti hamkorligida o'tkazilgan tanlov natijasiga ko'ra, Amerika maktablarida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdi. 8 nafar o'qituvchi Amerika, Fransiya, Germaniya va Angliya davlatlarida pedagogik tajriba o'rganish uchun xizmat sifatida bo'lib qaytishdi. 4 nafar o'quvchi AKSELS (AQSh) tashkiloti tomonidan o'tkazilgan «O'qitishda a'lochilik dasturi» tanlovi g'olibi bo'lib, qimmatbaho mukofotlarga ega bo'lishdi. Ushbu tanlovda o'qituvchilarimizdan 13 nafari g'olib bo'lib, 200 AQSh dollari hisobida dasrlik, nusxa ko'chirish uskunasi va AVM kompyuteri bilan mukofotlandilar.²

Navoiy shahar umumta'lim maktablari va akademik litseylarda Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirliklari «Sog'lom avlod uchun» Respublika jamg'armasi

¹ Mustaqillik odimlari, islohotdagi tub burilishlar. Navoiy. 2001. 22- bet.

² Shu yerda: 2001. 23- bet.

va Amerikaning Prokter End Gembl kompaniyasi hamkorligidagi «Jozibador tabassum», «Balog`at davri» o`quv dasturlari asosida mashg`ulotlar o`tkazilmoqda.

Xalqaro hamkorlik borasida so`z ketar ekan, bizning milliy dasturga asosan olib borayotgan o`zimizga xos yutuqlarimiz ham borligini yodga olish o`rinlidir: ta'lim tizimida ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llash va ilg`or tajribalarni ommalashtirishdir. NDPI qoshidagi 1-sonli Akademik litsey bu tanlovda qatnashib erishgan- muvaffaqiyatlarini Respublika miqyosida namoyon etganligi, ta'lim tizimidagi ko`p qirrali ko`rsatkichlarning quvonarli salohiyatini ravshan ko`rsatib turibdi.

Milliy dasturni amalga oshirishda o`quvchi tahsil olayotgan jismoniy muhitning – ya'ni bino va inshootlarning ta'mirlanish sifati, ulardagi tasviriy va axborot vositalarining ta'sirchanligi, zamonaviyligi darsxonalarining jihozlanish sifati, tarbiyaviy ta'sir kuchi beqiyosdir. Shu sababli ta'lim tarbiyaning boshqa omil va vositalardan tashqari o`quvchi tahsil olayotgan muhitni yaxshilash ham islohotni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Shu maqsadda, respublika va mahalliy budjetdan chet el investisiyasini olib kelish uchun 6 milliard so`mga mablag` ajratilganligi islohotlarning bajarilishini bildiradi deb ishonch bildirishi mumkin.

2001 yillarda respublika miqyosida hozirga zamon talabiga javob beradigan 239489 to`plam o`quv partiyalari, 26872 dona sinf doskalari va stol – stul, kitob va kiyim javonlari kabi mebellarni almashtirish bo`yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu ajratilgan investisiyaning 12 % Navoiy viloyati kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda amalga oshirildi¹. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagan edilarki, “umumta'lim dasturlar ni amalga oshirish yakunlari bo`yicha 2010 yilga borib Navoiy viloyatida 55 ta zamonaviy kasb-hunar kolleji, 4 ta akademik litsey, yangidan qurilgan va kapital rekonstruksiya qilingan 96 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko`rsatishiga erishamiz². Darhaqiqat, Prezidenti-mizning bu tilaklari amalga oshdi. Ayni paytda hozirda viloyat

¹ Ma`rifat gazetasi. 2001 yil, 1 sentyabr.

² Karimov I.A. Bosh maqsad: Vatan taraqqiyoti va xalq faravonligi. I. A. Karimovning Navoiy viloyati saylovchilari bilan uchrashuvi. “Do`stlik bayrog`i”. gazetasi. 2007 yil, 30 noyabr.

kasb–hunar kolleji va akademik litseylarga xorijiy investitsiyasini jalb etish maqsadida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Galdagi vazifa umumta`lim muassasalarining qishloq joydagi yangi binolarini qurish rejalari hammamizni quvontirishi nabiiy.

2015-yil Investitsiya dasturi doirasida Navoiy viloyatida jami: 18 ta umumta`lim maktablarida qurilish-ta`mirlash ishlari olib borilgan. Shundan: 3 ta yangi qurilish, 13 ta rekonstruksiya va 2 ta kapital ta`mirlash. Ushbu ta`mirlash ishlariga jami bo`lib, 14,8 mlrd. so`m mablag` sarflangan va foydalanishga topshirilib, jihozlab berilgan. 2016 yilda esa, viloyatda jami 17 ta maktabda qurilish - ta`mirlash ishlari olib borilmoqda. Shundan 2 ta yangi qurilish, 13 ta rekonstruksiya, 2 ta kapital ta`mirlash. Bu ishlarga jami 17,9 mlrd. so`m mablag` ajratilgan.¹

Ta`kidlash o`rinliki, o`quvchi yoshlarni pullik tayyorlov Markazlarida darsdan bo`sh vaqtlarida til o`rganishlariga ham katta e`tibor berilmoqda. Ingliz tili, kores tili markazlari shular jumlasidandir. Bu Markazlarda xorijdan chaqirib keltirilgan o`qituvchilar dars o`tishmoqda². Bularning hammasi akademik litsey va umumta`lim maktablarining yoshlarga to`g`ri yo`l ko`rsatish, ularni ilmi, kasb – hunarli qilib tarbiyalash, ertangi kunga tayyor qilib shakillantirish jihatidan ahamiyati juda katta. Eng muhimi kasb–hunar kollejlarning bitiruvchilari oliy o`quv yurtlarga kirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Hamkorlik aloqalari ta`lim muassasalarini yangi bosqichni bosib o`tishiga har tomonlama yordam bermoqda. Bugunda umumta`lim muassasalari zamon bilan hamnafas va har qanday talabga javob bera oladi.

Umuman, tadqiqotimiz shuni tasdiqlamoqdaki, viloyat ta'lim tizimidagi barcha ko`rsatkichlar, Respublikamiz ilm zahirasining boyitish yo`lidagi izlanishlar, yutuqlardan bir sahifadir, xolos. Hali bu borada qilinadigan ishlar juda ko`p. Binobarin, bu ma`suliyatli vazifalarni bajarish viloyat umumta`lim maktablari jamoasi qo`lidan keladi deb o`ylaymiz.

¹ Navoiy viloyati Xalq ta`limi boshqarmasi joriy arxivi. (2015-2016 yil hisoboti)

² Shu yerda: (2015-2016 yil hisoboti)

2. Tarix ta'limini o'qitishda xorij ta'limi tajribasidan foydalanish.

Xorijiy ta'lim tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ularning maktab ta'limidan tortib to oliy dargohlarigacha ijtimoiy fanlar asoslari fani o'qitiladi. Binobarin, bu fanning o'qitilishiga asosiy fan sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi bugungi davr talabi hamda uning xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha sohalarda bo'lgani kabi, ta'lim sohasida ham erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmasdan, ularni yanada mustahkamlash va olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, butun mamlakat bilan birga ta'lim sohasini ham modernizatsiya qilish yo'lidan qat'iy bormoqda. Ayniqsa, maktabda tarix ta'limini o'qitishda xorij ta'limi tajribasidan foydalanish borasida ham keng ko'lamda amaliy ishlar tadbiriq etilmoqda.

Prezidentimizning "Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi va poyoni yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi"¹ degan fikrlari bu borada dasturiamal bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Global dunyoda inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda kadrlarni tarbiyalash borasida milliy istiqloq g'oyasining bosh maqsadlarini ro'yobga chiqarish ehtiyoji ortib borayotgani sir emas. Shu sababli mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlar kengaymoqda. "Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda"².

Har yili ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh qilishga yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizi va Davlat byudjeti xarajatlarining 35 foizini

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston", 1999. 32b.

² "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. –T.: O'zbekiston, 2012. 6-7-betlar.

yo'naltirayotgan O'zbekiston tajribasini o'rganish xalqaro konferensiya rezolyutsiyasida qayd etilgani, mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish uchun juda keng imkoniyatlar yaratilayotganining dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi har birimizni g'ururlantiradi.

Bugunda, mamlakatimizda jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallari tashkil etilgan. Ayni vaqtda Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetining filiallarida talabalar jahon ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim olayotgani e'tiborga molikdir. Shuningdek, ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnikaviy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YUNESKO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy va boshqa davlatlar oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorlik tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimizda Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Maktab talimini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» tufayli bugun mamlakatimiz o'quv maskanlarida shart-sharoit tubdan yaxshilandi. Jumladan, birgina Navoiy viloyatida 356 ta umumta'lim maktabi, 4 ta akademik litsey va 47 ta o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari mavjud bo'lib, unda 130 ta'lim yo'nalishlari kesimida 55806 nafar o'quvchi yoshlar kasb-hunar sirlarini o'rganishmoqda. Ularga 4813 nafar pedagog, muhandis pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari kasb - hunar sirlarini o'rgatib kelishmoqda. Ayni paytda maktab talimini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 2004-2009 yillarda viloyat bo'yicha jami 341 ta maktabda qurilish-tamirlash ishlari amalga oshirildi. Jumladan 10 ta yangi maktab binosi qurildi, 97 ta maktab binosi kapital rekonstruksiya qilindi. 140 ta maktabda kapital va tamirlash ishlari bajarilib, ular uchun jami 47,9 milliard so'm mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, 248 ta ta'lim muassasasiga fizika, 186

tasiga ximiya laboratoriyasi jihozlari, 226 tasiga kompyuter jamlanmalari yetkazib berildi.¹ Bu imkoniyatlar es bugun har doimgidan ham ko`proq xalqimizning, ayniqsa, o`sb kelayotgan yosh avlodning istiqboli madaniy-intellektual qiyofasi, ilmiy dunyoqarashi, jismoniy barkamolligini ta`minlaydigan ma`naviy – axloqiy ta`limot bilan boyitilgan o`quv-tarbiyaviy ishlarimizni kuchaytirishimiz, ular mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillari bilan boyitishimizga da`vat etmoqda. Ayni paytda ko`p yillik tajribalar va tahlillarimiz mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida ham xorij tajribalaridan foydalanish zarurligini ko`rsatmoqda².

O`zbekiston bugunda mustaqil davlat sifatida dunyo hamjamiyati bilan madaniy va ilmiy sohalardagi aloqalarga ham alohida e`tibor berib kelmoqda. Bu sohalardagi aloqalar xalqlar orasida yaqinlashuv uchun g`oyat muhim ekanligi alohida ta`kidlashga hojat yo`q. O`zbekistonning boy madaniy ma`naviy an`analari qadim zamonlardan insonparvarlik, ozodlik va taraqqiyot g`oyalariga, umuminsoniy qadriyatlarga uyg`un ekanligi bu munosabatlar uchun yaxshi zamin bo`lib xizmat qilmoqda.

O`zbekiston uchun ilm - fan va ta`lim sohasidagi aloqalarni rivojlantirish katta samara bermoqda. Bu jarayon xorijiy davlatlari bilan madaniy va ilmiy aloqalarining shakllanishida va takomilida yaqqol namoyon bo`lmoqda. O`zbekiston rahbariyati shunday bir sharoitda, xalqimiz, Vatanimiz manfaati, yurtimiz kelajagini o`ylab, xalqaro munosabatlarda hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish uchun zarur barcha kuch va imkoniyatlarni topib, ularni ishga solmoqda. Yurtboshimiz takidlaganidek, «biz davlatimiz kelajagini o`z chegaralarimiz, o`z qobig`imizga o`ralib qolgan emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o`zlashtirgan holda tasavvur etamiz.»³

O`zbekistonda ta`lim tizimi islohoti umumta`lim maktablari, litsey va kollejlarda rivojlanishida o`zining ijobiy o`zgarishlarini namoyon etmoqda. Jahon

¹ Do`stlik bayrog`i. Gazeta. 13-oktyabr, 2015 yil, № 82.

² Xalq ta`limi. Jurnal. // O. Abduqudusov. Ta`limni takomillashtirishda xorij tajribalari // № 5son, 2013yil, 36-39 betlar

³ Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. «Ma`naviyat». 2008. 114-bet.

mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish, yangiliklar va yutuqlarni ta'lim tizimiga joriy etish, bularning hammasi bu tizim faoliyatini yanada rivojlantirishga ko'maklashmoqda. Talim sifatining oshirilishi, tarbiya berishning o'ziga xos usullaridan keng foydalanilayotgani, yoshlarimizning iqtidor va salohiyati yuzaga chiqarilayotgani sohadagi izchil islohatlar mevasidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach uning ta'lim tizimi islohotida amalda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

- "Ta'lim to'g'risida" Qonun, "Kadrlar tayyorlashning milliy modeliga asosan ta'lim turlari qonun bilan tasdiqlandi, uzluksiz ta'lim tizimi asoslari yaratildi;
- Zamonaviy tipdagi yangi jahon andozalariga javob beradigan o'quv binolari (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va maktablar) barpo etilib, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanmoqda;
- DTS talablariga muvofiq ta'lim ta'limida fan asoslarini o'qitilishi bilan bog'liq davlat standartlari asosida tashkil etilishiga erishildi;
- Ta'limda totalitar tizimdan demokratik ta'lim tizimiga o'tish ta'minlandi;
- Ta'limni yangi ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish amalga oshdi;
- Har bir o'quvchining qiziqishi va o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda ta'limni insonparvarlashtirilishi, demokratlashtirish vazifasi bajarilmoqda;
- O'quvchilarning bilimlarini sifatli o'zlashtirishlarini ta'minlaydigan uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishga sharoit yaratildi;
- Ta'limda xalqaro ta'lim tizimi tajribasi o'rganilib, ta'lim tizimida ilg'or texnologiyalarni qo'llash, o'qitishda sifat va samaradorlikka erishish ta'minlanmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarish erkin, mustaqil fikrlovchi, ayni paytda mas'uliyatli shaxsning shakllanishini ta'minlaydi. Barkamol inson shakllanish esa bevosita uzluksiz ta'lim jarayonida amalga oshadi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'limni rivojlantirish milliy dasturda belgilangan eng asosiy vazifalardan biri bo'lib, bilim va yuksak intellektning nufuzi ulkanligidan dalolatdir¹.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston». 2000. 258-bet.

Bugungi kunda barcha sohalardagi globallashtirish jarayonlari va axborotlarning shiddat bilan kirib kelishi hamda uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan umumta'lim tizimida o'quvchilarning keng ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni erkin, tanqidiy va global fikrlashga o'rgatishda inovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Binobarin, o'quv fanlarining mazmuni, ta'limni tashkil etish shakli, metod, vosita va texnologiyalarning innovatsiyalashuvi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tarix fanini o'qitish texnologiyasida qanday usulda o'qitish, nima asosida bilim berish, mashg'ulot jarayonida qanday vositalardan foydalanish, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchining ishtiroki, hatti-harakatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, o'rta maktab ta'limi tizimida maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir. Ayni paytda o'qitishni natijalari o'qituvchining o'qitishdan ko'zlagan maqsadi, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishga bog'liqdir.

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazarda qaraganda qaraganda bu masalani keng o'rganish, tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

Sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda tarix fanini o'qitilishiga bir yoqlama qaralganligi, mustamlakachilik siyosatiga doir voqealar uzoq yillar davomida xalqdan berkitilgani, yoki mustamlakachilarning yurtimizda yuritgan

har qaday harakat xalqimiz tarixida ularni taraqqiyot sari eltuvchi muhim omil sifatida talqin etilganligi, tarixiy haqiqat sinfiy kurash nuqtai nazarda talqin etilganligi, xalq qadriyatlari, uning tarixiy merosi mensimaganligi bugunda hammaga ayon bo`ldi.

Bugunda tariximiz milliy istiqlol ruhida o`rganilmoqda. Keyingi yigirma yilliklarda tarix fani mustaqil va navqiron sifatida o`z chegarasini kengaytirdi. Ayniqsa, sobiq sho`rolar davri tarixini qayta o`rganish, tahlil etish borasida qator ilmiy izlanishlar xalqimiz tarixini xolisona o`rganishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar samarasi sifatida shu davrlarda yozilgan tarixiy kitoblarga xolisona baho berish, tahlil qilish borasida ham muhim yutuqlar qo`lga kiritildi. Lekin tarix fanini o`itish va o`rganish bilan bog`liq masalalarda hali muammolar mavjudligi yaqqol sezilmoqda. Bugunda ta`lim tizimini isloh etish jarayonida bu vazifalar ham sobitqadamlik bilan echilmoqda. Xorijiy tajribalga tayanilmoqda. Muhimi o`qitish ajdodlarimiz tajribasidan tashqari zamonaviy o`qitish uslub va metodlaridan foydalanish undagi muammolarni yechishga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, mustaqillikka erishganligimiz tufayli tarixni haqqoniy yoritish imkoniyatiga ega bo`ldik. Yurtboshimiz I.A. Karimov ta`kidlaganlaridek, “Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o`z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o`zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda”¹. Bu esa biz yosh tarixchilardan tarixiy voqealarni sinchiklab o`rganishni, manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida xolisona mushohada qilish, o`qitish va o`rganish tizimida yangi usullardan foydalanishga da`vat etmoqda. Prezidentimiz ta`kidlaganidek, “O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q”².

Darhaqiqat, tarix fani buyuk tarbiyachilik vazifasini bajara oladi. Tarixdan to`g`ri saboq chiqarish nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, o`qitishda xorij tajribasidan foydalanish orqali o`quvchi aqliy faoliyati taraqqiyotiga ijobiy ta`sir ko`rsatib, mantiqiy fikrlash doirasini yanada kengaytirish ijobiy samara bermoqda. Binobarin, bu usul ularda moddiy borliq, shaxslararo munosabat hamda ularning

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: O`zbekiston, 1999. 149 b.

² Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch. T. “Ma`naviyat”, 2008. 4-bet.

mexanizmlarini har tomonlama anglab olishga asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Narsa va hodisalarning ichki murakkab bog'lanishlarini, qonuniyatlarini mustaqil ravishda tushunish uchun imkoniyat tug'diradi. Ularning mulohaza yuritish doirasini kengaytiradi, o'quv motivlarini yuzaga keltiradi. Voqealikni bilishga faollik uyg'otadi. O'zini o'zi boshqarishga puxta zamin hozirlaydi.

O'quvchilarning ijtimoiy ishlardagi faol ishtiroki ularning g'oyaviy e'tiqodini shakllantirishga yordam beradi natijada, o'zlarini o'rab turgan muhit haqidagi tasavvur va tushunchalar kengayadi, chuqurlashadi va aniqlashadi. Ta'lim tizimi isloh qilinar ekan, bunda albatta o'qitish mazmuni bilan birgalikda o'qitish usullarini ham jonlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'qitish uchullari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Ma'lumki, an'anaviy o'qitish usullari axborotni uzatish, qabul qilish jarayoniga qarab so'z orqali, ko'rgazmali yoki amaliy ifodalanishi mumkin. Bugungi kunda axborot almashinuvining keskin taraqqiyoti, globallashuvi aynan o'qitish usullariga ham o'z ta'mirini o'tkazadi. Endi avvalgidan farqli o'laroq ta'lim beruvchi faqat bilim va saviyasi darajasinigina emas, balki ta'lim jarayonida qaysi metodni o'quvchiga bilim beribgina qolmay erkin tafakkur yurishga, mustaqil fikrlashga undaydi?-degan savol bilan o'z ustida tinmay izlanishida bo'lmog'i lozim. Bugungi kunda o'quvchi passiv eshituvchi emas bo'ldi ta'lim jarayonida o'qituvchi bo'lishi kerak. Shu o'rnida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida Amerikaning «Street laf» (ko'cha qoidasi) dasturi o'z o'rnini topib kelmoqda. Ushbu dasturda taklif qilingan metodlar o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin bayon qilish, tanqidiy tafakkur, jamoa bilan ishlash, o'z fikrlarini himoya qila olish, haq-huquqlarini anglay olish imkoniyatiri yaratadi. Ushbu dasturda o'ziga xos metodlar tilga olinadiki, bular, aqliy hujum, munozara, ajurli arra, debat o'z o'rnini top, tanqidiy fikrlash, muz yorish, qor bo'ron va yana bir qancha qaziqarli nomdagi metodlardir.

Dars jarayonida o'quvchilar tomonidan tarixiy bilimlarni o'zlashtirishga, idrok etishga o'qituvchining bevosita va sistemali rahbarlik qilish mazkur muammoni ijobiy hal etishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Masalan, ya'ni bilishlari shart bo'lgan tarixiy masalani alohida qayd etishi yoki mavzuni bayon

etish rejasini tuzishi, xaritada u yoki bu yo'nalishlarni aniq ko'rsatib berishi taqazo etiladi. Ayniqsa, o'qitish jarayonida xorij tajribasiga tayanish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Bugunda tarix ta'limi darslari jarayonida xorij tajribasidan foydalanish qanday natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini berdi? Bular:

- Maktabda tarix ta'limini o'qitishning maqsad va vazifalari belgilandi, davrlashtirishda bir to'xtamga kelishildi;
- Maktabda tarix fanlari bo'yicha o'quv darsliklari va o'quv metodik qo'llanmalarining yangi avlodi tayyorlanib o'quvchilarga yetkazildi;
- Tarix darslari jarayonida xorij adabiyotlaridan foydalanish masalasi bosqichma-bosqich hal etilmoqda;
- O'quvchilarning kompyuter savodxonligi ta'minlanmoqda.
- Tarix darslarini o'qitilish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, noana'naviy dars tashil etish, dars jarayonida axborot texnologiyalari va o'qishning turli interfaol usul va metodlaridan foydalanish, ayniqsa interaktiv usullardan foydalanish vazifalari bosqichma-bosqich hal etilishiga erishilmoqda;
- O'qitish tizimida modul tizimi jarayoniga o'tish ta'minlanmoqda;
- Tarix darslari mavzularini o'tilishini demokratik va insonparvarlik ruhida tashkil etilish, yoshlarni milliy g'oya asosida fikrlashga o'rgatish, komil inson qilib tarbiyalash masalalari shakllantirilmoqda;
- Tarix ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, mashg'ulot mobaynida faolligini oshirishga erishilmoqda.

Tarixning fan sifatida yoritish va o'quvchi diqqatini uzoq o'tmishga qaratish bilan birga o'quvchilarning dunyoqarashlarini, ilmiy nazariy tafakkurlarini takomillashtirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqea va hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiy ob'ektivlik tamoyillariga amal qilgan holda tarixiy voqealikka munosabat bildiradigan hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalash masalasi shu kunning eng dolzarb vazifasi

bo`lib turibti. O`quvchilarda xalqimizning madaniy, ma`naviy merosiga, ilg`or an`analari, milliy qadriyatlari, ahloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg`ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo`shgan xissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo`lishni tushuntirish ham tarix fanining maqsad va yo`nalishlarini belgilamoqda.

Aslida, kishilar onggini eski tuzum asoratlaridan xalos etish, ular qalbida yangicha tafakkur, yangi mafkura g`oyalarini singdirish, milliy qadriyatlarimizni, tilimiz, tariximizni tiklash, barkamol avlod tarbiyasi borasida amalga oshiriladigan ishlarni bajarish, biz yosh avlodlarning zimmasiga tushmoqda. Shuningdek, ma`naviyat masalasiga alohida e`tibor berish, yoshlar orasida xavf solishi mumkin bo`lgan ayrim mafkuraviy taqdidlarga, yovuz intilishlarga aslo yo`l qo`yib bo`lmaydi.

Bugungi kunda o`tmish saboqlarini o`rganishga ehtiyoj tobora kuchayib borayotgannining o`ziga xos sabablari bor. Chunki qarashlar yangilanmoqda. Munosabatlarning yangi yo`nalishlari: tarixiy tajriba, ijtimoiy dunyoni inson tomonidan ma`naviy - ma`rifiy, ruhiy amaliy o`zlashtirish va bilishning yangi bosqichini ochib bermoqda. Qadriyatlar haqidagi tassavurlar qalqib chiqmoqda. Demak, tarixiy jarayonlardan chiqariladigan xulosalar faqatgina bilimlar va qadriyatlarga emas, balki ma`naviy qudrat vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazarda qaraganda tariximizni milliy g`oya ruhi asosida o`rganish, milliy haqqoniy tariximizni yaratish avvalabor madaniyatimiz va ma`naviyatimizni yuksaltirish zaririy vazifa bo`lib qolmoqda. Prezidentimiz I. A. Karimov ta`kidlaganlaridek, “Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta`lim va ma`naviyatni tushunib yetish boshlanadi”¹

Bugunda dars samaradorligini oshirishda ayniqsa, tarix fanlarini o`qitishda integratsion yondoshuvga katta e`tibor bilan qaralmoqda. ²Ya`ni, hozirdgi zamon didaktikasi va metodikasida predmetlararo, kurslararo va bir o`quv

¹ Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol yo`li. T.: “O`zbekiston”, 1992. 73-bet.

² Choriyev A. XXI asrda pedagogika fani. / Xalq ta`limi/. Jurnal, Toshkent, 2001, № 4, 17 - 20-betlar.

predmeti ichidagi aloqalarni o'rganish masalasi ta'limga integratsion yondashishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotlarning metodologik bazasi ham yangilanmoqda. Tarix fani bilan arxeologiya, etnologiya, san'atshunoslik, sotsiologiya kabi yondosh fanlar o'rtasida o'zaro metodologik tajriba almashinuvi yuz berdi. Qolaversa, yaqinda bajarilgan ayrim tadqiqotlarda ilk marotaba ilmiy amaliyotga matematik uslub olib kirildi, ya'ni epistolyar manbalarning kontent tahlili asosida XX asrning 20-30-yillarda O'zbekistonning oddiy fuqarolarining ijtimoiy va ruhiy holati hamda siyosiy kayfiyatini umumiy manzarasi yaratildi¹. Shuningdek, tarixiy shaxslar ham tadqiqot ob'ekti tarzida tadqiq qilina boshlandi va bu hol hozirgi zamon tarixini sezilarli darajada rivojlanishi hamda jonlanishiga olib keldi. Tarixchilar tomonidan og'zaki tarixga ham katta e'tibor berilmoqda, tarix fanida sotsiologiya metodlari ham keng qo'llanila boshlandiki, buning natijasida retrosotsiologiya kabi tadqiqot shakllari vujudga keldi. Ayniqsa, arxeologiya fani yuzasidan xorij tajribasini o'rganish va amalda qo'llash kabi bilimlarning o'zlashtirilishi ilmiy tadqiqot ishlarining jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Kosmosdan turibsputniklar orqali, qadimgi manzilgohlar joyini aniqlash imkoniyatlari vujudga kelmoqda.

Umuman olganda, ilmiy tadqiqot sohasida ijtimoiy fanlarning yaqinalshuvi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, tarix arxeologiya sxemasi bugungi kunga kelib birmuncha yaxshi samara bermoqda. Holbuki, bir paytlar fanning ushbu sohalarning har biri mustaqil tarzda rivojlangan bo'lib, ular orasidagi o'zaro bog'liqlik mavjud emas edi. Shubhasiz, tarixchilarning qadimgi va o'rta asrlarga oid xulosalari haqli ravishda arxeologiya fanining eng yangi natijalariga asoslanishi zarur. Etnologiya sohasida ham muayyan yangiliklar amalga oshirildi. Ushbu fan tarmog'ida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq uning mavzulari doirasi ham asta-sekin kengayib boryapti, xususan, bu hol nazariya va metodologiya sohasida ko'zga tashlanmoqda.

Ayni paytda xorijiy ta'lim tajribalarini o'rganish, ularda qo'llanilayotgan "Ta'lim texnologiya"si modelini o'rganish bizda ancha qiyin kechdi. Dastlab

¹ O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi». T., «O'zbekiston», 1997. 21-bet.

xorijda tajriba orttirganlar bu modelni hududimizga moslashtirmay turib pedagogik jamoatchilikka taqdim etdilar. Amaliyot shuni ko`rsatadiki, xorijda kashf qilingan har qanday usulni o`z hududiga qo`llanganda, shu usulning tamoyillaridan tonmagan holda, uni qayta ishlab, hududga moslashtirish kerak ekan. Bu vazifani O`zbekistonning pedagog olimlari keyinroq anglab yetib, “Ta`lim texnologiyasi”ning o`zbek milliy modelini faqat 2000 yildan keyin ishlab chiqdilar va uni 2009 yili nashrdan chiqardilar.¹

Demak, xorij tajribasidan o`uv jarayonida foydalanishda avvalo tarix ta`limi mavzularini o`zlashtirishda milliy g`oya tamoiliga tayanish, ajdodlarimiz qadriyatlari va o`gitlariga amal qilish, adolat, insoniylik, xalqchilik, vatanparvarlik va komillik fazilatlarini qaroq toptirishdek vazifani bajarish lozim.

Shunday qilib, tarix fanida yangi paradigmalarning shakllanishi **birinchidan**, siyosiy jarayonlar tarixchining ijtimoiy mavqeidan boshlab ijtimoiy fanning infrastrukturasi o`zgarishiga olib keldi; **ikkinchidan**, yangi ilmiy qarashlarning, yondashuvlarning shakllanishiga respublika fanining dunyoga yoyilishi, chet eldagi axborotlarning kirib kelishi, milliy kadrlarning yangilanishi, yangi va eskicha qarashlarning kurashlari, arxiv manbalarining ochilishi, to`ldirilishi, fan moddiy bazasini noakademik vositalar hisobiga (xorijiy larni ham) yaxshilanishi o`z ijobiy tomonlariga ega bo`ldi. Ayniqsa, xorijiy ta`lim tizimini tajribasini o`rganish, kelajakda shu davlatlar bilan raqobat qilish imkoniyatlarini ochb bermoqda. O`quv darsliklarni yangi avlodini yaratishga ko`maklashmoqda. Ta`lim tizimida o`tkazilayotgan islohatlarni samaradorligini ta`minlamoqda. Yangilik va izlanuvchilik muhiti shakllangan. Yosh avlodning barkamol kelajagi uchun huquqiy va iqtosodiy shart – sharoitlar yaratilmoqda. Unda ta`lim berayotgan o`qituvchilarning murakkab va ayni paytda ma`suliyatli mehnat faoliyatlari yoshlarni bilimli, komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Xulosa qilib ta`idlash o`rinliki, maktab ta`limida tarix fanlarini o`qitishda xorij ta`lim tajribalaridan foydalanish, o`quv jarayoni muvofiqlashtirish va dars samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

¹ Ziyomammeddov Bo`ri. Ta`lim texnologiyalari. T.: 2012. 35-bet

Xulosa

Bugungi kunda O'zbekiston teng huquqli asosda «Birlashgan Millatlar tashkiloti hamda Yevropada xafsizlik va hamkorlik tashkiloti singari eng nufuzli va tasir doirasi keng barcha qitalardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona munosibatlarni kuchaytirmoqda, yirik bank va moliya organlari, davlat va hukumatga qarashli bo'lmagan xorijiy tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik qilmoqda»¹.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xafsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini taminladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 190 davlati tan oldi, ularning 133 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy ilmiy–texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 45 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Pokiston, Xitoy, Hindiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyoda 25 dan ortiq davlatda—AQSh Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.²

Barcha sohalarda: siyosatda, iqtisodiyotda, ijtimoiy va madaniy turmushda o'zgartirishlar hamda islohotlarni amalga oshirilayotgan O'zbekistonda, tinchlik va hamkorlikka bag'ishlangan kengashda qatnashuvchi davlatlar amal qilayotgan davlatlararo munosabatlar qoidalari, hozir mavjud bo'lgan chegaralarining tan olinishi va dahlsizligi, mustahkam va chinakam tinchlik uchun sharoit yaratish, xalqaro huquqqa rioya etish sohasida qabul qilingan majburiyatlarni vijdonan bajarish qoidalari ardoqli va qadrlidir.

Bugunda O'zbekiston butun dunyoda o'zini tashqi siyosiy va madaniy aloqalarini boy tarixiga ega bo'lgan va mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon

¹ I. A. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. T. «O'zbekiston», 1996. 18 - bet

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda 2015. T.: 2015. 18-bet.

etmoqda. Xalqaro huquqi jihatdan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi bab – barobardir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek «Mustaqillikka erishilgandan keyin O'zbekistonning xalqaro jamiyatda ishtirok etishi uchun katta imkoniyatlar ochildi. Siyosatimizning asosiy maqsadi–dunyoga eshik ochish,jahon maydoniga, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga sobitqadamlik bilan kirib borishidir; o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy, savdo va boshqa sohalarda qizg'in hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. O'zbekistonning uning boy o'tmishini, madaniyatini,hozirgi kunini va bu yerda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonini dunyoga tanitishdir»¹.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari qatori Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlari bugunda har qachongidan ham samarali kechmoqda.Mamlakatimizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash ishiga bevosita hissa qo'shayotgan davlatlar o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanib bormoqda.Mana shu tenglikga asoslangan o'zaro manfaatli hamkorlik O'zbekis-tonni xom ashyo yetkazib beradigan mamlakatdan mahsulot ishlab chiqarib sotadigan davlatga aylantirdi.O'zbekiston qisqa vaqt ichida xorijga maxsulotlarni eksport qilagigan, avtomobil ishlab chiqarilayotgan 28 davlatning biriga aylandi. Buni boshqa sohalarda erishayotgan muvaffaqiyatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, respublikamizda ta'lim sohasida misilsiz o'zgarishlar yuz bermoqda.Avvalo sohadagi eng muhim o'zgarish hech bir mamlakatda o'xshashi bo'lmagan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning ishlab chiqilganligi va amaliyotga tadbiiq etilayotganligi bo'ldi.Milliy dasturni bajarish-ning birinchi bosqichida juda ko'p yangi ta'lim maskanlari bunyod etildi.Yangidan barpo etilayotgan kasb-hunar kollejlari,akademik liseylar va zamonaviy maktablarning yangidan barpo etilishi ma'lum ma'noda keyingi bosqichga zamin hozirladi.

¹ I. A. Karimov. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T. «O'zbekiston». 1993. 10 – bet

Ayni paytda ta'kidlash kerakki, istiqloлга erishgan ilk kunlardan boshlab O'zbekiston ilm-fan va ta'lim sohasida xorij mamlakatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. O'zbekistonning dunyo davlatlari bilan integratsiyalashuvi yurtimiz taraqqiyoti va faravonligiga xizmat qilmoqda.

Ta'lim tizimi islohotida belgilangan vazifalarini keng miqyosda to'liq amalga oshirishida kasb - hunar kollejlari, akademik liseylarni rivojlantirish, uni zamonaviy ta'lim maskanlariga aylantirish, ta'lim mazmuni sifatini oshirish, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish imkonini beradigan noan'anaviy pedagogik texnologiyalar va ta'limning yangi uslublarini yaratish, hamda amaliyotga joriy etish jadal sur'atda davom etib kelmoqda. Bu vazifalarni bajarish jamiyatimizning ertasi ozod va obod bo'lmog'ini, yurtimiz kelajagi faravonligini ta'min etuvchi barkamol avlod bilan bog'liqdir. Mustaqillik biz uchun nafaqat erkinlik, balki Vatan kelajagi uchun yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash, o'zligini anglash ham demakdir. Binobarin, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Modomiki o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur»¹.

Magistrlilik dissertasiyamizda bugunda ta'lim sohasida ayniqsa maktab ta'limida amalga oshirilyotgan islohotlar, xorij tajribasida foydalanish, o'qitish natijalari, muammolari tarixini tadqiqot va tahlil qildik. Shu o'rinda viloyatdagi ushbu ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar namoyon bo'layotganligiga, ularning moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlanib borayotganligiga, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, fikrlarini erkin bayon etishga, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga o'rgatadigan yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etilayotganiga ham amin bo'ldik.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, shuni ta'kidldmoqchimizki, hali islohotlar zamirida muhim ko'pgina vazifalarni bartaraf etishga harakat qilishimiz kerak. Yuzaga chiqqan ayrim muammolarni bartaraf etilishini, muhim

¹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq". 1998. 24 – bet.

zaruriy vazifaga deb bilamiz. Shuningdek, tadqiqot natijalarimizdan kelib chiqib, ayrim mulohaza va takliflarimizni bildiramiz:

- Buyuk o'zgarishlar davri bo'lgan hozirgi sharoitda demokratiya, ma'naviyat, barkamol avlod kabi yuksak umumbashariy qadriyatlar ta'lim tizimida o'zini yaqqol namoyon etmoqda. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uning tenglar ichida- teng bo'lishi, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan, ayniqsa, ta'lim tizimida foydalanish zaruriy ehtiyoj sifatida qaralmoqda;

- Tarix fani insonda yuksak barkamollikni, uning intellektual darajasini ta'minlaydi, qaror toptiradi. "Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki,- deydi I. Karimov,- inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi-ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega"¹. Qurilayotgan huquqiy, demokratik, fuqarolik jamiyatning asosini ma'naviyat-ma'rifat tashkil etayotganining sir-sinoati ham shundan;

- Mamlakatlarimizning ta'lim, kadrlar tayyorlash va madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Yurtimizda xorijiy davlatlarning ko'plab oliy o'quv yurtlarining filiallari tashkil etib, ularning o'quv jarayoni bilan bog'liq ilg'or yoki zamonaviy usullari ta'lim sohasiga tadbiiq etilyapti. Natijada ta'lim sifati va samaradorligi tubdan yaxshilanishi ta'minlanmoqda va respublikada ilm-fan va ta'lim-tarbiyani jadal rivojlanishiga olib kelmoqda;

- Tadqiqotlarimiz shuni tasdiqlamoqdaki, xorijda kashf qilingan har qanday usulni o'z hududiga qo'llanganda, shu usulning tamoyillaridan tonmagan holda, uni qayta ishlab, hududga moslashtirish kerak ekan. Bu vazifani O'zbekistonning pedagog olimlari keyinroq anglab yetib, "Ta'lim texnologiyasi"ning o'zbek milliy modelini faqat 2000 - yildan keyin ishlab chiqdilar va uni 2009 -yili nashrdan chiqardilar. Ta'lim – tarbiya mazmuniga

¹ Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: O'zbekiston, 1999. 45-b

ajdodlarimiz o`g`itlari, xalqimiz milliy qadriyatlarini singdirish barobarida zamonaviy pedagogik texnologiyani tadbiiq etish mumkinligi tasdiqlandi;

- Tarix ta`limida xorijning ta`lim jarayonidagi o`qitish usullari, yangi pedagogik ta`lim texnologiyasidan foydalanib, bilim va ta`lim - tarbiya berish yildan-yil takomillashib bormoqda. Tarix saboqlari orqali, ma`lumotlilik-ma`rifat asosini tashkil etuvchi bosh g`oya, tabiat va jamiyat aloqadorligini anglab yetish, avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechish, sabr-bardosh, adolat, qanoat, o`zgalar fikrini hurmat qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e`zozlah kabi sifatlarni shakllantirmoqda.

- O`quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo`naltirish orqali ularning o`zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda xorij tajribasiga tayanilmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada "Odobnoma" fani 6-sinf-gacha o`qitilishi yo`lga qo`yilgan bo`lib, hozirda bizning umumta`lim maktablarida bu fanni o`qitish joriy etildi. Yoki, Xitoy va Koreya davlatlarida din ta`limdan ajralgan. Bizning ta`lim tizimimizda bu amal qilmoqda va hokazo.

- Haqli ravishda ta`kidlash o`rinliki, ta`lim sohasidagi islohatlarni amalga oshishida xorij investitsiyalarining alohida o`rni bor. Qisqa muddatda islohotlarning tadbiiq`i, zamonaviy o`quv binolarining bunyod bo`lishi va ulaning eng yangi o`quv jihozlari bilan ta`minlanishi xorij davlatlarining moliyaviy ko`maklashuvi natijasida takomillashib, ko`rkam qiyofa kasb etmoqda;

- O`quv jarayoniga ta`lim texnologiyasini tadbiiq`i, xorij ta`lim tajribasining ayniqsa, tarix ta`limda qo`llanishi ijobiy natija bermoqda. Bugunda tarix ta`limida o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy metodlari: zamonaviy (xususan interfaol) metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsiya (mediata`lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron - didaktik) texnologiyalarni qo`llanishi odatiy tus oldi. Shuningdek, tarix" fanini o`rganish davomida mashg`ulotlar paytida axborot (taqdimot, multimediya, texnologiyalar) va ta`limning zamonaviy texnologiyalari (rivojlantiruvchchi texnologiyalari, fanini to`liq o`zlashtirishga yo`naltiradigan texnologiyalar) hamda interfaol metodlar

(“Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “T-chizma”, “Ekin yozish”, “Bir-biridan soʻrash”, “Klaster”, “Tushunchalar tahlili”, “Loyiha”, “Blits” va hokazolar) qoʻllanillanishi dars samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, bugungi mustaqilligimiz sharoitida «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida oʻqitishning sifat va samaradorligini oshirish borasidagi dastlabki dadil qadamlar qoʻyila boshlandi. Ayniqsa, tarix fanlarini oʻqitish, taʼlimda xorij tajribasidan foydalanish sohasida ham qator yutuqlar qoʻlga kiritilmoqda. Oʻqitishning samaradorligini oshirish maqsadida xorij tajribasidan foydalanib, oʻqitish jarayonida turli uslub va metodlari qoʻllanilmoqda. Dars jarayonini tashkil qilish borasida yangi didaktik, ota bobolariz qadriyatlariga asoslangan uslublar joriy qilinmoqdaki, bu metodlarni dars jarayonlarida qoʻllash oʻz samarasini bermoqda.

Tadqiqotimiz jarayonida taʼlimning sifat va samaradorligini oshirishda xorij taʼlim tajribasidan foydalanish ayniqsa, tarix taʼlimi oʻqitishda xorijning ilgʻor metodik uslublarini qoʻllash bilan bogʻliq ayrim jihatlarini oʻrganishga harakat qildik. Ayniqsa, mustaqillik davrida bu yoʻnalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, natijalari, muammolari tarixini tadqiqot va tahlil qildik. Shu oʻrinda taʼlim tizimidagi ijobiy oʻzgarishlar namoyon boʻlayotganligiga, ularning moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlanib borayotganligiga, oʻquvchilarni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga, fikrlarini erkin bayon etishga, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga oʻrgatadigan yangi pedagogik texnologiyalarini taʼlim jarayoniga joriy etilayotganiga amin boʻldik.

Ilmiy izlanishlarimiz shuni tasdiqlamoqdaki, Yurtimizda zamonaviy taʼlim maskanlari qad koʻtarmoqda, chet el investitsiyalari olib kirilmoqda, xorijning ilgʻor tajribalaridan keng foydalanilmoqda, umumtaʼlim tizimidagi dogmatik, yaʼni qotib qolgan usullardan voz kechilgan va ayni paytda DTS talablari asosida sifatli oʻquv adabiyotlar bilan oʻquvchi yoshlarni bilimini oshirishga, iqtidorli va isteʼdodli oʻquvchi–yoshlarni qobiliyatini oʻstirishga, sport bilan doimiy shugʻullanadigan, jismonan baquvvat, sogʻlom yoshlarni kamol toptirish hamda tarbiyalashga harakat qilib kelinmoqda. Lekin hali islohatlar zamirida

umumta`lim maktablarida tarix fanini o`qitishda muhim ko`pgina vazifalarni bartaraf etishga harakat qilishimiz kerak. Yuzaga qalqib chiqqan ayrim muammolarni bartaraf etilishini, muhim zaruriy vazifaga deb bilamiz. Bular ayniqsa, o`quv jarayonini yanada samarali tashkil eilishi bilan bog`liq. Ayniqsa, o`quvchining shu uslub va metodlar asosida o`tilgan darslariga ijodiy yondashish, o`rganilayotgan tarixiy davrni turmush bilan uzviylikda bog`lab o`rganishni taqozo etmoqda. Keyingi vazifalarimizda quyidagilarni amalga oshirish zarur deb o`ylaymiz:

- umumta`lim tizimida kompyuter savodxonligini ta`minlash;
- tarix o`qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, interaktiv metodlaridan foydalanib, o`quvchilarning fikrlash, anglash, tasavvur qilish, amaliy ish bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- tarix ta`limi orqali shaxs dunyoqarashini shakllanish, komil inson qilib tarbiyalash, yoshlarimiz o`z kuch va intilishlarini mamlakatning ertangi kuni qanday bo`lishiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan bugungi muhim ijtimoiy – iqtisodiy, fuqarolik jamiyati qurilishiga xos bo`lgan muammo va masalalarini hal etishga yo`naltirilishi lozim. Buning uchun esa yoshlarni na faqat xorijiy tajribalar asosida, balki buyuk xalqimizning qadriyatlarini, tarixiy merosimiz va sog`lom g`oyalar, sog`lom fikrlar bilan qurollantirishimiz zarur;
- Tarix ta`limi orqali o`z haq-huquqini taniydigan, o`z kuchi va imkoniyatiga tayanadigan sodir bo`layotgan voqea hodisalariga munosabatini bildiradigan komil insonni tarbilash, bu jarayonda xalqaro ta`lim tajribasidan unumli foydalanish, yangi usul va metodlarni qo`llash va shu usullar orqali ta`lim-tarbiya jarayonini sifat jihatdan o`zgartirish lozim.

Demak, bugunda ta`lim tizimini rivojlantirish, uni zamonaviy jahon ta`lim maskanlari bilan raqobat qila oladigan bilimli salohiyati yetuk yoshlarni tarbiyalab yetishtirish bosh vazifa bo`lib qolmoqda. Bu vazifalarni bajarish jamiyatimizning ertasi ozod va obod bo`lishini ishtirokchisi, yurtimiz kelajagi faravonligini ta`min etuvchi barkamol avlod bilan bog`liqdir. Mustaqillik biz

uchun nafaqat erkinlik, balki Vatan kelajagi uchun yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash, o'zligini anglash ham demakdir. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Albatta, ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir»¹.

Shubhasiz, o'quv topshiriqlari orqali o'qituvchi o'quvchi faoliyati bilan bog'lanadi. O'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan kuchaytirilgan faoliyat talab etiladi. Demak, o'quv jarayoni o'qituvchidan muttasil ijodkorlikni, izlanishni va yangilikni talab etadi. Agar o'qituvchi o'z ustida tinmay izlansa, noan'anaviy dars tashkil etish jarayonida xalqaro tajribalarni o'zlashtirsa, o'z mahoratini ko'rsata olsa, dars samaradorligi oshadi, hech qanday izoh yoki namunaga ehtiyoj qoldirmaydi. Binobarin zamon o'qituvchidan ingliz tilini o'rganishni va amalda qo'llashni talab etmoqda. Xolbuki, xorijiy tajriba va yutuqlarni o'zlashtirmasdan zamonaviy dars tashkil etish mumkin emas.

Bugunda tarix ta'limi orqali yoshlarni siyosiy faolligini oshirish, ularning bilim darajasini yuksaltirish, ularda mamlakatimizda yuz berayotgan barcha o'zgarishlarga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirish masalalariga asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Fanning tarbiyaviy faoliyatiga yanidan-yangi ma'suliyat yuklatilmoqda. Chunki tarix fani, avvalo siyosiy fan. Uning o'qitish tamoyillari, uslub va metodlaridan foydalanib yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda foydalanish ijobiy natija berishi tayin. Shunday ekan, yoshlarni tarix, tarixiy xotira bilan qurollantirish, mazkur jarayonda xalqaro ta'lim tajribalaridan unumli foydalanish, hech kimdan kam bo'lmaydigan shaxsni kamol toptirish hayotiy zaruriyatdir.

Xulosa qilib aytganda, respublikaning taraqqiyot g'ildiragi shu ulug' zaminda tug'ilib o'sayotgan yoshlar go'lidadir. Yoshlarni to'g'ri yo'lga harakatlantirish ularning tayyorgarlik darajasiga bog'liq ekan, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish kerak ekan, bu o'rinda xorij ta'limi tajribalari yordam beradi. Ta'lim samaradorligini oshirishga har doim ko'maklashadi.

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat". 2008. 61 – bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va risolalari.

- 1.1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. : “Sharq”. 1997. 63b.
- 1.2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.: “Sharq”. 1998. 36 b
- 1.3 Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni, millat qilishga xizmat etsin. T.: “O`zbekiston”. 1998. 30b.
- 1.4. Karimov I.A. Bosh maqsad: Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi. (I.A. Karimovning Navoiy viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashidagi nutqi). “Do`stlik bayrog`i” gazetasi. 2007 yil 30 noyabr.
- 1.5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma`naviyat», 2008. 176b
- 1.6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston». 2000. 258-bet.
- 1.7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O`zbekiston”, 2011. 439b.
- 1.8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish-eng oliy saodat. T. ”O`zbekiston”, 2015. 313b.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari

- 2.1. O`zbekiston Respublikasining Prezidentining 2007 yil 26 fevraldagi PF –3857 sonli “Xalq ta`limi muassasalarining moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to`g`risida” gi Farmoni.
- 2.2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to`grisida” gi PF-3431- sonli Farmoni.
- 2.3. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida // Xalq so`zi, 2012. 29 may, № 10.

3.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmonlari.

- 3.1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 fevralidagi “Akademik litsey va kasb–hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to`g`risida”gi 77-qarori.
- 3.2. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayidagi “O`zbekiston Respublikasi o`rta maxsus, kasb–hunar ta`limini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 204 – qarori.
- 3.3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta`lim tizimini darsliklar va o`quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to`g`risida» 1998 yil 5 yanvardagi 4 -sonli qarori.
- 3.4.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2001 – 2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet” ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 200 yil 23maydagi qarori.

4. Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligining buyruq va Nizomlari

- 4.1. “Akademik litsey va kasb hunar kollejlari pedagogik kadrlar bilan ta`minlash haqida” gi buyrug`i. (2007 yil, 6 fevral)
- 4.2. Vazirlar Mahkamasining “O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi to`g`risida Nizom”. 2008 yil 13-maydagi 204-sonli qarori.

5. Statistik to`plam

- 5.1. O`zbekiston hududlarining yillik statistik to`plami. Toshkent. 2015.246-b.
- 5.2. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo`mitasi.O`zbekistonda ta`lim. Toshkent. 2015. 256-b.
- 5.3. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo`mitasi.O`zbekiston raqamlarda. Toshkent. 2015. 215-b.

6. Arxiv hujjatlari

1. Navoiy viloyat akademik litsey va kasb – hunar kollejlari boshqarmasi joriy arxivi. 1997-2016 yillar.
2. Navoiy viloyati Xalq ta`limi boshqarmasi joriy arxivi. 1997-2016 yillar.
3. Navoiy shahar Xalq ta`limi bo`limi joriy arxivi. 1997-2016 yillar.

7. Avtoreferatlar

1. To'uchiev M.B. «O'zbekiston respublikasida o'rta maxsus maorifini rivojlantirish uchun ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llari. T. Avtoreferat. 2004.
2. Толибов Р.Н. Развитие и совершенствование системы средних специальных образование и подготовки кадров специалистов в Узбекистане. (Опыт и проблемы) Автореф. канд. ист. наук. Т. 1993.

8. Jurnallar:

1. Talim menejmenti. 2007-2016 yillar
2. Jamiyat va boshqaruv. 2007-2016 yillar.
3. Fuqarolik jamiyati. 2007-2016 yillar.
4. Uzluksiz ta'lim 2007-2016 yillar.

9. Gazetalar

1. "Xalq so'zi" gazeta. 2007 - 2016- yillar
2. "Marifat" gazeta. 2007- 2016- yillar
3. "Do'stlik bayrog'i" gazeta. 2007 - 2016- yillar
4. "Jamiyat" gazeta. 2007 - 2016- yillar

10. Internet ma'lumotlari.

1. Узбекистан- Япония: образовательный обмен совершенствуется. 16 декабря 2011г. //veb- sayti. [www. jahonnews.uz](http://www.jahonnews.uz)
2. Узбекистан-Япония: 20 лет плодотворного сотрудничества, 28 января, 2012 г. //www. jahonnevs.uz.
3. В Узбекистане проведена огромная работа по укреплению демократии.// 25 dekabr, 2009 г.// www.uza.uz.
4. Узбекистан – Япония: укрепляя многовековые связи и сотрудничество на современном этапе. 28 апреля 2012 г. // [www. jahonnevs. uz](http://www.jahonnevs.uz).
5. Узбекистан добился значительного прогресса и больших успехов в обеспечении всеобщего доступа к базовому образованию, 18 февраля 2012 г // [www. jahonnevs. uz](http://www.jahonnevs.uz).
6. Гумманистический подход в образовании, 8 мая, 2012г. // [www. uza .uz](http://www.uza.uz)

11. Maxsus adabiyotlar va manbalar ro`yxati

1. Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. Ташкент.2005.с.166
2. Bozorov E. Musurmonova O. O`qituvchining ijodkorligi – davr talabi. T.: O`qituvchi. 1990.127b
3. Boshlang`ich sinflarda ta'limni optimallashtirish masalalari (Ilmiy to`plam) T.: 1998. 248b
4. Глобальное образование: теория и практика, -ЮНИСЕФ. 2004.С.127.
5. Ergashev. Q. O`zbekiston xalq ta`limining rivojlanish tarixi.T.: “O`qituvchi”, 1998.154b.
6. Ergashev F. Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan T.: “Akademiya”,1998.174b
7. Ergashev Q. O`zbekiston xalq ta'limining rivojlanish tarixi. Maxsus kurs T.: O`qituvchi. 1998. 94b
8. Jo`rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T. Ma`naviyat.2008.459 b
9. Istiqlol va ta'lim. Xalq ta'limi mustaqillik yillarida.1991–2001. T.: “Ma'rifat – madadkor”. 2001.32b
10. Lafasov M. O`zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari.T.1995.173b
11. Levitin L.O`zbekiston tarixiy burilish pallasida.T. «O`zbekiston».2001.158b.
12. Миронов В. Б. Век образования. М., Педагогика, 1990. 242.
13. Mustaqillik odimlari, islohotdagi tub burilishlar va natijalar.Navoiy.2001.34b.
14. Murodov X.Muhammadiyev N.Jamolov G. O`zbekiston Jahon Hamjamiyati safida.T.«G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti».2000.32b.
15. Mahkamov U. Shaxsni ma'naviy shakllantirish.T.:“O`zbekiston”.1988.87b.
16. Mahmudov B. Qashqadaryo xalq talimining taraqqiyot yo`li. Qarshi, Nasaf, 1999 .97b.
17. Mustaqillik yillarida xalq ta'limi. “Andijon”. 1997.68b.
18. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. “O`quv qo`llanma. T.: “O`qituvchi”. 1995.
19. Milliy maktab poydevorini yaratish yo`lida. T.: 1991.74b.
20. Ochil Safo. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.:«O`qituvchi”. 1997.

21. Образования в современном мире: глобальные и региональные тенденции. М. 2005. -211с.
22. Qodirov B. Ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo`nalishlari. T.: “O`zbekiston”. 1999 . 30-bet.
23. Qurbonov Sh. Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo`nalishlari. T.: “Fan”, 1999.174.
24. Roziqov O, Og`ayev S, Mahmudov M , Azizov. B. Ta'lim texnologiyasi. T.: «O`qituvchi”. 1999.
25. Rahmonov R. Fayziyev F.Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda tarixiy ong va tarixiy xotira. T.:“O`zbekiston”, 2008.72-bet.
26. Рахимов М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии.Т.:“Yangi Nashr”. 201. с.232.
27. Реформа образования в современном мире.-М. Владос, 2006.с.192.
28. Sotliqov B. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim– tarbiya mazmunini yangilashning dolzarb vazifalari. “Urgench”. 1995.96b.
29. Saidaxmedov N. S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnalogiya. T.: 2003.
30. Saifnazarova F. O`zbek oilasi: ijtimoiy va ma`naviy qadriyatlar.”Yurist media markazi”. T., 2007.147b.
31. Садиев А. Преподавания истории народов Узбекистана.Т.: “Укитувчи”, 1993.
32. Taraqqiyot va hamkorlik yo`llarida. T. «O`zbekiston». 1993.
33. To`raxonova R. O. Olti yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari. T.: “O`qituvchi” 1990.
34. Филиппов Ф. Р. Школа и социальное развитие общества. М. Педагогика, 1990.
35. Чориев А. Проблемы народного образования педагогических кадров Узбекистана. Т.: “Фан”, 1997.
36. O`zbekiston mustaqil taraqqiyot yo`lida.Mualliflar jamoasi.Т.: “O`zbekiston”. 1994.

37. O`quvchilarni tarbiyalashdi oila, mahalla, maktab hamkorligi: Maxsus kurs.
T.: O`qituvchi. 1998.87b
38. O`quvchi ma'naviyatini shakllantirish: (Umumta'lim maktab, direktori, ma'naviy – ma'rifiy tarbiya ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari, sinf rahbari va tarbiyachi uchun qo`llanma). T.: “Sharq”, 2000.93b.
39. O`zbekiston – Koreya: uchrashuvlar, muzokaralar, samaralar. «Xalq so`zi».
1995 yil, 2- fevral.
40. G`affarov Ya. X. Xolliyev A.O`zbekiston va jahon hamjamiyati.T.2003.104b.

**Mavzu: “Maktab tarix ta`limida xorij ta`limi tajribasidan foydalanish (Xitoy, Yaponiya, Koreya, Singapur, Malayziya misolida)”
Tajriba va muammolar.**

M U N D A

Kirish.....	3-10
I. Bob. O`zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish.	
1.1. Mustaqil O`zbekistonning Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ta`lim sohasidagi aloqalari, natijalari va istiqboli.....	11-20
1.2. Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarining O`zbekistondagi Oliy o`quv yurtlari va ular bilan hamkorlik munosabatlari.....	21-27
II. Bob. Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida ta`lim tizimining tuzilishi va o`ziga xos xususiyatlari.	
2. 1. Xitoy, Yaponiya davlatlari ta`lim tizimining o`ziga xos xususiyatlari.	28-33
2. 2. Koreya, Singapur, Malayziya davlatlarida ta`lim tizimi, o`qitish uslublari, farqi va muammolari.....	34-42
III. Bob. Maktabda ta`limni tashkil etishda xorij ta`limi tajribasidan foydalanish.	
3.1. Ta`limni tashkil etishda investitsion aloqalar.....	43-48
3.2. Tarix ta`limini o`qitishda xorij ta`limi tajribasidan foydalanish..	49-59
Xulosa.....	60-67
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	68-74